



UDK:930

*Nafisa VALIEVA,*  
*Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi*  
*E-mail:nafisavaliyeva1981@gmail.com*

*NamDU professori, t.f.d A.Rasulov taqrizi asosida*

## YAGONA TURKISTON G'OYASI: MARKAZIY OSIYO TARIXIDAGI BIRINCH DEMOKRATIK DAVLAT REJASI YO'LIDAGI INTILISH

Аннотация

Ushbu maqolada Turkiston mintaqasida siyosiy hayot, jumladan boshqaruv tizimidagi kamchiliklar, xalqning ahvoli, ziyolilarning munosabati, ularning ma'naviy hayotga ta'sir o'tkazishga harakat qilishlari xususida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Mulkdor, ulamolar, qozilar, aktsiyadorlik jamiyatlari, Turkiston general-gubernatorligi, "begona zot", "yerli aholi".

## ИДЕЯ ЕДИНОГО ТУРКЕСТАНА: ПУТЬ К ПЕРВОМУ ДЕМОКРАТИЧЕСКОМУ ГОСУДАРСТВЕННОМУ ПЛАНУ В ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация

В данной статье представлена информация о политической жизни Туркестанского края, в том числе о недостатках системы управления, состоянии народа, отношении интеллигенции, ее стремлении влиять на духовную жизнь.

**Ключевые слова:** Владелец, писцы, судьи, акционерные общества, Туркестанское генерал-губернаторство, «иноходец» («иностранный порода»), туземец («землеладельческое население»).

## THE IDEA OF A UNITED TURKESTAN: A STRIPE TOWARDS THE FIRST DEMOCRATIC STATE PLAN IN THE HISTORY OF CENTRAL ASIA

Annotation

This article provides information about the political life of the Turkestan region, including the shortcomings of the management system, the state of the people, the attitude of the intelligentsia, its desire to influence the spiritual life.

**Key words:** Owner, scribes, judges, joint-stock companies, Turkestan Governor-Generalship, "foreigner" ("foreign breed"), native ("landowning population").

**Kirish.** Ma'lumki, jadidchilik Markaziy Osiyo mintaqasi ijtimoiy taraqqiyotining XIX asr oxiri – XX asr boshidagi keskin burilish bosqichida paydo bo'lgan edi. Jadidchilik jamiyatni yangilash va isloh qilish harakati bo'lgan. Birinchi bosqichda harakat ishtirokchilari mavjud ijtimoiy tizimni boshdan-oyoq o'zgartirishga harakat qilmagan. Ijtimoiy hayotning alohida sohalari, eng avvalo, ta'limning ma'naviy sohasini isloh qilish ustuvor vazifa o'laroq ko'ringan. Ha, shuni ham qayd etish joizki, ular dunyoqarashiga Turkiyadagi 1907-1908-yillardagi inqilobiy harakat va 1912-yildagi Eron inqilobi ta'sir ko'rsatgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Aynan jamiyatni isloh etish masalalari, aynan islom dinini isloh qilish bilan bog'liq masalalar, erkak va ayollarning teng huquqligiga oid masalalar – bular barchasi XX asr boshida albatta ko'tarilgan. Ammo keyinchalik, ayniqsa, 1917-yilgi fevral inqilobidan so'ng, monarxiya rejimi ag'darib tashlangach, bu harakat siyosiy lashuv yo'liga o'tdi. Bu yerda ishchilar, deputat askarlar kengashlari tuzila boshladi va o'sha paytda bu g'oyalar jadidlar ongiga kirib bordi va ular mana shu ta'sir ostida dastlab ijtimoiy tashkilotlar tuzish, so'ngra musulmonlarning siyosiy partiyalarini tuzish masalalarini o'rta tashlaydigan bo'ldi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Albatta, asta-sekin Rossiya Federativ Demokratik Respublikasi tarkibida avtonom – muxtor respublika tuzish g'oyasi ilgari surila boshladi. Ya'nikim, yagona Turkiston g'oyasini aynan jadidlar harakatiga taalluqli deb aytyshimiz mumkin, chunki ushbu hududni Rossiya imperiyasi bosib olgandan va bu yerda mustamlakachilik rejimi o'rnatilgandan so'ng o'sha paytda

ziyolilar o'z qarashlarini, fikrini ochiq ayta olmasligi tayin edi. Ilk jadid tashkilotlari va jadidlarniki deb ataladigan birinchi gazeta "Taraqqiy" tashkil etilgandan – 1906-yil 27-iyundan – so'ng shunaqa imkoniyat paydo bo'ldi. O'sha paytda jadidlar ham "taraqqiyparvar" deb atalgan. Ular gazetasida "taraqqiy", "taraqqiyot" tushunchasi haqida yozar edi. Ayni choqda shuni ham qayd etish zarurki, o'sha paytda jadidlar chop qilgan gazetalar qandaydir kitob do'konlari orqali emas, qo'lma-qo'l tarqatilgan, ularning cheklangan adadi bir qo'ldan ikkinchisiga yashirin tarzda uzatilgan, chunki ular eski o'zbek tilida arab alifbosida yozilgan. Bu davr monarxiya rejimi hukm surayotgan 1905-1908-yillar bo'lgan. Albatta, jadidlar harakatini, ular gapirgan gaplarni nazorat qilib turuvchi senzura bor edi. Shuning uchun yagona Turkiston g'oyasi qayerdan: jadidlardan olingani yoki bu ko'hna orzu bo'lgani haqida ma'lumot berayotib, albatta, Turkiston g'oyasi, yagona Turkiston g'oyasi jadidlar vaqtida dunyoga kelgan edi, deb aytyshim mumkin. Ko'pchilik mana shu yagona Turkiston g'oyasini o'sha zamonda tushunmagan, chunki u vaqtda Rossiya imperiyasidan ajralib chiqish va alohida davlat barpo etish uchun sharoit bo'lmagan. Shu bilan birga, Rossiya ma'muriyati va hokimiyati bu masalaga juda qattiq qaragan va jarayonni kuzatib borgan.

**Tahlil va natijalar.** 1917-yilning 26-28-noyabr kunlari Qo'qonda bo'lib o'tgan Butun Turkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyida e'lon qilingan Turkiston muxtoriyati O'lka jadidlarining yillar bo'yi kurashgan, «Haq berilmas, olinur!» shiorining amaldagi ifodasi bo'lgandi. Lekin endi-endi qadamlarini qo'yayotgan, hokimiyat sifatida to'la-to'kis asoslarini mustahkamlayotgan

muxtoriyat 1918-yilning fevralida batamom tugatiladi, tashabbuskorlari mahv etildi. Bu kun alohida tantana bilan nishonlanmasa-da, tor davralarda eslab qo'yiladi, sanoqli tarixchi-tadqiqotchining ma'ruzalari eshitaladi, biroq, bir guruh faollarning fikricha, mamlakatning milliy bayramlaridan biri bo'lishi lozim bo'lgan bu tarixiy kun ko'pincha unutiladi. Muxtoriyat 27-noyabrda tashkil etildi va 1918-yil fevralida yakson etildi. Ushbu qaror juda noaniq vaziyatda yangradi va juda ko'pchilik buning uzoq davom etadi, deb o'ylagan.

Muxtoriyat Rossiya Respublikasi ichida tashkil etildi – bu mustaqillik deklaratsiyasi ham emasdi. Bu bolsheviklar hokimiyatni egallashiga qarshi harakat edi va bolsheviklar qo'li baland kelmaganida omon qolardi. Muxtoriyatchilar bolsheviklar ularga hokimiyat berishiga ishonadigan darajada shunchalik sodda edimi yoki sobiq imperiya o'rnida shunday muxtoriyatlar bo'lishi mumkinligiga bolsheviklarning o'zi ham samimiy ishongan va boshqalarni shunga ishontira olganmi? U holda qanday qilib uch oy ichida bu qarash, bu kayfiyat butunlay o'zgaragan? Yo'q, ular sodda, go'l emasdi. Muxtoriyatchilar bolsheviklar hokimiyatni juda osonlik bilan qo'sh qo'llab topshirishiga ham ishonmagan. Bolsheviklar tutadigan yo'l behad noaniq bo'lib, muxtoriyatning e'lon qilinishi bolshevizmga to'la-to'kis qarshi harakat edi aslida. Vaziyat kutilganidan tez o'zgarib, bolsheviklar va ularning hammaslari, tarafdorlari barcha qurollarga ega bo'lib olgandi. Inlklyuziv hukumat sifatida e'tirof etsa bo'ladigan muxtoriyat nega Qo'qonda e'lon qilingan, Toshkent yo Samarqandda emas? Toshkent rus hokimiyatining markaziga aylangan, Toshkent soveti esa faqat rus bo'lgan proletariat nomi bilan ayni shu yerda hokimiyatni qo'lga olgandi. Adib Xolidning «O'zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob» kitobidan:

«Sho'roi islomiya rahbarlari yana bir karra Fevral inqilobi va'da qilgan vakillik va muxtoriyat tamoyilini Rossiyadagi Muvaqqat hukumatga bog'lamasdan talab etishga chog'landi. Shu maqsadda ular 27-noyabr kuni Qo'qon shahrida Turkiston musulmonlarining navbatdagi kongressini chaqirishdi. Qo'qon hali Toshkentdagi rus muhojir sotsialistlari qo'li yetmagan, Turkistonda Toshkentdan keyin turadigan eng rivojlangan iqtisodiy markaz edi. Yig'ilishda Turkistondagi musulmon siyosatining ko'zga ko'ringan barcha arboblari qatnashdi. Ulamo jamiyati a'zolarigina bundan mustasno. Sherali Lapin, Fuqaho jamiyatining yetakchisi muftiy Sadriddinxon Sharifxo'ja o'g'li ham o'sha yerda edi...

Kongress 54 kishilik Kengashga bo'ysunuvchi sakkiz a'zolik «Turkiston muxtoriyatining muvaqqat hukumati»ni sayladi. 32 kishi majlisga kelganlar orasidan saylandi, qolgan 18 joy g'ayrimuslim tashkilot va partiyalar tomonidan to'ldirilishi kerak edi, yana to'rtta joy mahalliy Dumalar vakillariga beriladigan bo'ldi. Kengash a'zolari orasida Turkistonda ko'zga ko'ringan musulmon arboblarning hammasi bor edi, biroq rus tahsilini olgan musulmon ziyolilari ko'pchilikni tashkil etardi... Kengashga saylangan 32 kishi orasida Sherali Lapin bilan Behbudiy ham bor edi. Ulamlar tarkibga kiritilmadi, lekin mo'tadil kayfiyatdagi ruslarga ularni Toshkent sovetlaridan uzoqroq tutish niyatida nomutanosib tarzda ko'p o'rin berildi. Alalxusus, faoliyatidan ulamo va sovetlar chetlashtirilgan kongress va u tayinlangan hukumat mintaqadagi keng liberal kuchlar ittifoqiga aylandi.

Toshkent Soveti legitimligini sinflar kurashi tarzida asoslasi, Qo'qonda e'lon qilingan hukumat o'z umidlarini Fevral inqilobi va'dalariga bog'ladi. Ushbu hukumat Rossiya siyosati doirasida faoliyat yuritdi, mustaqillikni emas, muxtoriyatni talab etdi, mintaqa liberal ruslarining ko'magiga erishish uchun ularga boshqaruv Kengashida haddan tashqari katta vakillikni (uchdan bir o'rin) berdi. Muxtoriyat rus bosqini yaratgan chegaralar doirasida hududiy xarakterda

bo'lgan, kongress Turkistonda yashaydigan elatlarni (narodnosti) aks ettirishga da'vogar edi. Yangi hukumat Rossiya imperiyasidagi boshqa aksilbolshevik kuchlar bilan aloqani mustahkamlashga urindi".

**Xulosa va takliflar.** Muxtoriyat ilk e'lon qilingan vaqtda uning salkam 10 kishik hukumatida uch vazir qozoq (bosh vazir – ichki ishlar vaziri Muhammadjon Tinishpayev, tashqi ishlar vaziri Mustafo Cho'qay, ichki ishlar vaziri o'rinbosari Abdurahmonbek O'razayev), ikki nafari tatar (bosh vazir o'rinbosari Shohisлом Shohiahmedov, qurolli kuchlar rahbari Mahdi Chanishev), bir nafari yahudiy (moliya vaziri Solomon Gersfeld) bo'lgan. Keyinchalik oziq-ovqat vaziri Obidjon Mahmudov o'rniga Rafael Potelyaxov (yahudiy) tayinlangan. Hukumat tarkibida yevropalik aholi uchun to'rt o'rin ajratilgan edi, muxtoriyat parlamenti vazifasini bajarishi kerak bo'lgan Turkiston Milliy majlisidagi 54 o'rinning 18 tasi ham yevropalik aholi uchun ajratilgan edi. Ma'lumki, jadidchilik Markaziy Osiyo mintaqasi ijtimoiy taraqqiyotining XIX asr oxiri – XX asr boshidagi keskin burilish bosqichida paydo bo'lgan edi. Jadidchilik jamiyatni yangilash va isloh qilish harakati bo'lgan. Birinchi bosqichda harakat ishtirokchilari mavjud ijtimoiy tizimni boshdan-oyoq o'zgartirishga harakat qilmagan. Ijtimoiy hayotning alohida sohalari, eng avvalo, ta'limning ma'naviy sohasini isloh qilish ustuvor vazifa o'laroq ko'ringan. Ha, shuni ham qayd etish joizki, ular dunyoqarashiga Turkiyadagi 1907-1908-yillardagi inqilobiy harakat va 1912-yildagi Eron inqilobi ta'sir ko'rsatgan. Aynan jamiyatni isloh etish masalalari, aynan islom dinini isloh qilish bilan bog'liq masalalar, erkak va ayollarning tenghuquqligiga oid masalalar – bular barchasi XX asr boshida albatta ko'tarilgan. Ammo keyinchalik, ayniqsa, 1917-yilgi fevral inqilobidan so'ng, monarxiya rejimi ag'darib tashlangach, bu harakat siyosiy lashuv yo'liga o'tdi. Bu yerda ishchilar, deputat askarlar kengashlari tuzila boshladi va o'sha paytda bu g'oyalar jadidlar ongiga kirib bordi va ular mana shu ta'sir ostida dastlab ijtimoiy tashkilotlar tuzish, so'ngra musulmonlarning siyosiy partiyalarini tuzish masalalarini o'rta tashlaydigan bo'ldi. Albatta, asta-sekin Rossiya Federativ Demokratik Respublikasi tarkibida avtonom – muxtor respublika tuzish g'oyasi ilgari surila boshladi. Ya'nikim, yagona Turkiston g'oyasini aynan jadidlar harakatiga taalluqli deb aytishimiz mumkin, chunki ushbu hududni Rossiya imperiyasi bosib olgandan va bu yerda mustamlakachilik rejimi o'rnatilgandan so'ng o'sha paytda ziyolilar o'z qarashlarini, fikrini ochiq ayta olmasligi tayin edi. Ilk jadid tashkilotlari va jadidlarniki deb ataladigan birinchi gazeta "Taraqqiy" tashkil etilgandan – 1906-yil 27-iyundan – so'ng shunaqa imkoniyat paydo bo'ldi. O'sha paytda jadidlar ham "taraqqiyparvar" deb atalgan. Ular gazetasi "Taraqqiy", "Taraqqiy" tushunchasi haqida yozar edi. Ayni choqda shuni ham qayd etish zarurki, o'sha paytda jadidlar chop qilgan gazetalar qandaydir kitob do'konlari orqali emas, qo'lma-qo'l tarqatilgan, ularning cheklangan adadi bir qo'ldan ikkinchisiga yashirin tarzda uzatilgan, chunki ular eski o'zbek tilida arab alifbosida yozilgan. Bu davr monarxiya rejimi hukm surayotgan 1905-1908-yillar bo'lgan. Albatta, jadidlar harakatini, ular gapirgan gaplarni nazorat qilib turuvchi senzura bor edi. Biz O'zbekiston markaziy arxivida ishladik. U – juda noyob arxiv, u yerda juda ko'plab hujjatlar saqlanib qolgan – rus tilida bitilgan hisobotlar ham bor. Ular senzura qiluvchi tashkilotlar hisobotlarida gazetalar, gazetalar muharrirlari, ularda qanday masalalar ko'tarilayotgani haqida yozilgan. Shuning uchun yagona Turkiston g'oyasi qayerdan: jadidlardan olingani yoki bu ko'hna orzu bo'lgani haqidagi savolingizga javob berayotib, albatta, Turkiston g'oyasi, yagona Turkiston g'oyasi jadidlar vaqtida dunyoga kelgan edi, deb aytishimiz mumkin. Ko'pchilik mana shu yagona Turkiston g'oyasini o'sha zamonda tushunmagan, chunki u vaqtda

Rossiya imperiyasidan ajralib chiqish va alohida davlat barpo etish uchun sharoit bo'lmagan. Shu bilan birga, Rossiya ma'muriyati va hokimiyati bu masalaga juda qattiq qaragan va jarayonni kuzatib borgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Ражабов К., Хайдаров М. Туркистон тарихи. – Т.: “Университет”, 2002. – Б. 5.
2. Расулов А., Исокбоев А., Насреддинова Н. Туркистон ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида татарлар. – Т.: “Турон-иқбол”, 2019. – Б. 34.
3. Абдуллаев Р. Национальные политические организации Туркестана в 1917-1918-годы. – Т.: “Adabiyot uchqunlari”. – С. 75.
4. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Иккинчи китоб. – Т.: “Шарк”, 2000. – Б. 11.
5. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. – Т.: “O'zbekiston”, 2019. – Б. 24.
6. Мусульманские депутаты Государственной думы России. 1906-1917 гг. Сборник документов и материалов. – Уфа: «Китап», 1998. – С. 293-295.
7. <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/475-vatan-tarixi.html>



Ziyadulla GAZIYEV,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi  
E-mail:abraxon-2006@mail.ru

JDPI professori, fal.f.d. (DSc) A.Saitqosimov taqrizi asosida

### ASHTARXONIYLAR DAVRIDA DAVLAT TA'LIM TIZIMI

Annotatsiya

XVII asrda Buxoro xonligidagi yirik shaharlarda oliy ta'lim beruvchi 150ga yaqin madrasalar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, ulardagi ta'lim tizimi zamon taraqqiyotini belgilab beradigan bilimlarni berishda ojiz edi. Garchi bu davrda ham riyoza, handasa, kimyo, astronomiya, falsafa va mantiq kabi ilmlar muayyan darajada taraqqiy etsa-da, bu sohalarida hatto o'rta asrlardagi yutuqlar darajasiga yeta oladigan asarlar yaratilmadi. Lekin shu bilan birga madaniy hayotni butunlay yo'qqa chiqarish ham mumkin emas. Ashtarxoniyalar davrida tibbiyotda Sharq xalqlariga xos an'analar, xalq tabobati o'z zamonasiga mos ravishda rivojlanishda davom etdi. Buxoroda tibbiyotga ixtisoslashgan madrasa va shifoxona faoliyat ko'rsatgan bo'lib, bu yerlarda bu sohaga oid bilimlar o'qitilishi bilan birga, bemorlarni davolash ishlari olib borilgan. Shuningdek, bu davrda tarix, adabiyot kabi ijtimoiy fanlar faoliyatida ham rivojlanish davom ettirildi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, fan, madaniyat, madrasa, davlat, tizim, din, meros, diniy ilmlar, Qur'on, aniq fanlar, tabiiy fanlar, tabobat, dastur, qadriyat, masjid, shifoxona, Buxoro, ma'naviy muhit, domla, shariat, konsepsiya.

### ГОСУДАРСТВЕННАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В ЭПОХУ АШТАРХАНИДОВ

Аннотация

Хотя в крупных городах Бухарского ханства в XVIII веке насчитывалось около 150 медресе, дающих высшее образование, система образования в них была неспособна передать знания, определявшие развитие времени. Хотя такие науки, как математика, геометрия, химия, астрономия, философия и логика, в этот период продвинулись в определенной степени, они не создали произведений, которые могли бы даже достиг уровня достижений средневековья. Но в то же время полностью уничтожит культурную жизнь невозможно. Во времена Аштарханидов традиции восточных народов в медицине, народной медицине продолжали развиваться в соответствии со своим временем. В Бухаре действовали медресе и больницы, специализирующаяся на медицине, где наряду с обучением в этой области проходили лечение больные. Также в этот период продолжалось развитие деятельности общественных наук, таких как история и литература.

**Ключевые слова:** Образование, наука, культура, медресе, государство, система, религия, наследие, религиозные науки, Коран, точные науки, естественные науки, медицина, программа, ценность, мечеть, больницы, Бухара, духовная среда, учитель, шариат, концепция.

### THE STATE EDUCATION SYSTEM DURING THE ASHTARKHANID ERA

Annotation

Although there were about 150 madrasahs providing higher education in the big cities of the Bukhara Khanate in the 17th century, the educational system in them was incapable of imparting the knowledge that determined the development of the times. Although the sciences such as mathematics, geometry, chemistry, astronomy, philosophy and logic progressed to a certain extent during this period, works were not created that could even reach the level of achievements in the Middle Ages. But at the same time, it is impossible to completely destroy cultural life. During the time of Ashtarkhanids, the traditions of the peoples of the East and folk medicine in medicine continued to develop in accordance with their times. A madrasah and a hospital specializing in medicine functioned in Bukhara, where knowledge related to this field was taught and patients were treated. Also, during this period, development was continued in the activities of social sciences such as history and literature.

**Key words:** Education, science, culture, madrasah, state, system, religion, heritage, religious sciences, Quran, exact sciences, natural sciences, medicine, program, value, mosque, hospital, Bukhara, spiritual environment, teacher, Sharia, concept.

**Kirish.** Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida xalq ta'limining tuzilishi va faoliyati deyarli bir xil bo'lgan. Ularda madrasalar, maktablar va qorixonalar mavjud edi. Madrasalar musulmon oliy o'quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Xonlar o'rtasida xonzoda va zodagonlarning bolalarini o'qitish uchun maxsus maktab bor edi. Masalan, "Ansob as-salotin va tavorixi al-havoqin" nomli asarda yozilishicha, "Musulmonqul mingboshining buyrug'i bilan yosh Xudoyorxon va qipchoqlar bolalarini o'qitish uchun o'rdada maktab qurilib, unga maktabdor etib Mullo Sodiq tayinlangan" [1:78]. Lekin bu maktab hozir Qo'qonda mavjud bo'lgan Xudoyorxon o'rdasida emas, balki 1845-yilda bo'lgan

xon o'rdasida joylashgan edi. Keyinchalik bu o'rda buzilib ketgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XVI-XIX asrning birinchi yarmida Xiva va Qo'qon xonliklari va Buxoro amirligida ta'lim, fan va madaniyat haqida gap borganda shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma sohalarida va birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islom dini g'oyasi markaziy o'rinni egallari edi. O'z boshlang'ich nuqtasini X-XII asrlardan e'tiboran olgan so'fiylik tariqati naqshbandiylik g'oyasi bilan uyg'unligi negizida XV asrga kelib yuksak cho'qqiga ko'tariladi, u to XX asrdagi siyosiy to'liq va larzalar davriga qadar jamiyat taraqqiyotining borishida jiddiy rol o'ynaydi. XVI asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran Jo'ybor shayxlari nomi bilan

tarixga kirgan din peshvolari yuqori mavqega ega bo'ladilar. Bu davrning nomdor shayxlaridan Xoja Muhammad Islom (1493-yil atroflari-1563), Xoja Jaloliddin Kosoniy (1549-yilda vafot etgan), u tarixda Mahdumi A'zam nomi bilan mashhur edi; Xoja Sa'ad (1531/32-1589); Xoja Tojiddin Hasan (1547-1646); Xoja Abdurahim (1575-1628/29) va boshqalar bo'lib naqshbandiylik tariqatining atoqli nomoyandalari bo'lganlar. Davlatni boshqarish ishlarida ruhoniylar faol qatnashganlar, hukmdorlar din arboblari katta mansablar va huquqlar berganlar. Buxoro hukmdorlari hatto o'zlarini "Musulmon amirlari" deb e'lon qilganlar. Mamlakat va davlat ahamiyatiga molik barcha ishlar, o'zga mamlakatlarga qarshi olib borilgan urushlar ruhoniylarning maslahati va fatvosi bilan e'lon qilingan. Ayni zamonada din ham xonlarni qo'llab-quvvatlagan, O'lloh va Qur'on nomidan ularga katta va cheklanmagan huquqlar bergan. Masalan, Amir Nasrullo (1825-1860)ning Qo'qon xonligini 1842-yili bosib olishi bunga dalil bo'la oladi. Yoki amir Shohmurod O'lloh irodasini bajo keltirishni qizg'in namoyish qilgani va davlatni islomning ravnaq topishiga g'amxo'rlik ko'rsatgani uchun "begunoh amir" nomini olgan. Darvoqe, Shohmurod naqshbandiylik darvesh jamoasining a'zosi va o'sha davrda shu jamoaning boshlig'i bo'lgan shayx Safarning muridi bo'lgan.

Madaniyat musulmon ruhoniylari ta'sirida edi. Zeroki, diniy mafkuraning namoyandalari-darveshlar, shayxlar tobora kuch yig'ib borardilar. Bu ayniqsa ilm-fan rivojida o'z aksini topar edi. Haqiqiy ilm o'rmini musulmon dinidagi sunniy mazhab mustahkam egallab, aniq va tabiiy fanlar quvg'inga uchragan edi. Ayniqsa, rivoziyot va falakiyot orqada qolgan edi. Ma'lumki, XVII-XVIII asrlarda ilm-fan rivojining darajasi keskin pasayib ketgan edi. Lekin faktik ma'lumotlarni tahlil qilib, bu holga ob'ektiv baho berish kerak bo'ladi. Aytish kerakki, bu davrdagi O'rta Osiyo davlatlarida rivoziy ta'lim haqida bahs yurituvchi o'quv adabiyoti kam o'rganilgan. Falakiyotchilar o'rniga muvaqqitlar kelgan edilar. Ular taqvimni kuzatish, bayramlar kelishi, saroy hayotidagi turli hodisalarni sharhlovchi jadvallar tuzish bilan ovora edilar [5:3-4].

Ruhoniylarning ta'siri va rahnamoligida o'z davrining mulkdorlari va xudojo'y kishilari mablag'lari hisobiga qabristonlar obod qilinlar, u yerlarga boradigan yo'llar, ko'priklar ta'mirlanlar va qabristonlarga yaqin joylarda masjidlar va madrasalar qurilardi. Naqshbandiylik ta'limotining asoschisi Bahovuddin Naqshbandning Buxorodan 12 kilometr narida joylashgan qabri to'ntarishiga qadar ham musulmon dunyosi xalqlari o'rtasida mashhur qadamjoy bo'lgan. Bu yerda har chorshanba kuni Buxoro shahridan va boshqa uzoq-uzoq yurtlardan musulmonlar bozorga va an'anaga aylanib qolgan "gul bayrami"ga to'planganlar. Qur'oni Karimdan tilovotlar qilib namozlar o'qiganlar. Amirlar bu qadamjoyi haftada bir marta albatta ziyorat qilishni odat tusiga kiritganlar, hojilar, jamoa arboblari sog'a-salomlar va tangalar hadya qilganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Aniq va tabiiy fanlar taraqqiyoti ruhoniylar va din peshvolari tomonidan ma'lum darajada cheklab qo'yilgan edi va bu fanlar bo'yicha qilingan ilmiy kashfiyotlar Alloh irodasiga shak keltiradi deb hisoblangan.

Madrasalarda aqidachilik hukmronlik qildi. Garchi Buxoro xonligida XVII asr o'rtalariga qadar kamida bir yuz ellikdan ortiq madrasa bo'lsa-da, ular maorifga tegishli munosabatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsata olmagan. Falakiyot tili ilmi nujum bilan aralashdirib yuborilardi, hatto eng o'qimishli kishilar ham xarita va jo'g'rofiyani yaxshi bilishmasdi. Buxoroliklarning bilim berishning an'anaviy usullarini inkor etishi xonlikda ilm-fanning taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda matematika, astronomiya,

kimyo fanlarida nom chiqargan Mullo Tursun Faranziy, musiqa bastakori Kavkabiylar ijod qilgan [2:37-38].

O'rta Osiyodagi har uchala xonlikda ham ruhoniylar qozikalon sifatida barcha sud ishlarini o'z qo'llari ostida markazlashtirib olganlar. Qozikalonlarni amir va xonlar tayinlar edilar. Ma'rifat, fan va maorifda ham islom mafkurasi asosiy va yetakchi yo'nalish bo'lib xizmat qilgan.

XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyodagi har uchala amirlik va xonliklarning madaniy taraqqiyotiga xos bo'lgan umumiy o'xshashliklar diqqatga loyiqdir. Bu o'xshashliklarning sabablari ham bir-biriga juda o'xshashdir. Birinchidan, O'rta Osiyo hududidagi davlatlar XV asrlarda madaniy taraqqiyotda dunyoda eng yetakchi o'rinlarda turgan bo'lsa, XVI-XVII asrlarda e'tiboran bu hududda tushkunlik boshlandi. Ikkinchidan, har uchala davlat birliklari o'zlari alohida mustaqil faoliyat ko'rsatsalar-da, davlat idora ishlari o'zbek va fors tilida olib borilgan. Buxoroda fors, Qo'qonda fors-o'zbek, Xivada o'zbek tili rasmiy til bo'lib hisoblangan. Turmushda, adabiy ijodda o'zbek va fors tillari keng qo'llanilar edi. Uchala davlatda ham aholining asosiy qismi turkiy tilda so'zlashgan. Uchinchidan, an'anaga ko'ra fanda, adabiyot va maktabda arab va fors tilining obro'si saqlanib qolgandi [3:186].

Odatda, maktablarda, asosan, o'qish va yozish, arifmetika va adabiyot o'qitilgan. Qorixonalarda esa asosan ko'zi ojizlar o'qib, Qur'oni Karimni yodlar edilar. Maktab qizlar uchun alohida, o'g'il bolalar uchun alohida bo'lgan. Masalan, mashhur shoira Dilshod Qo'qonda maktab ochgan. U o'zining pedagogik faoliyati haqida bunday deb yozgan edi: Mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqlli qizlar va iste'dodli shoiralardir edi. Ellik bir yil davomida men maktabdorlik qildim va yiliga o'rta 20 tadan 30 tagacha o'quvchilarim bo'lib, sakkiz yuz to'qsonga qizlarning savodini chiqardim, bulardan deyarli chorak qismi she'riyatga qobiliyati bo'lib, shoira va o'z davrining aqlli va dono odamlari edi.

Qo'qon shahrida boshqa shaharlarga nisbatan maktablar soni ko'proq bo'lgan. Bu esa xonliklarning aksariyat ko'pchiligi savodli bo'lib, o'qish va yozishga usta bo'lganligidan dalolat beradi.

O'qituvchilar o'z uylarida ochgan xususiy maktablardan tashqari barcha o'quv yurtlari, turli shaxs va tashkilotlar tomonidan xayriya qilingan vaqflardan tushadigan daromad hisobiga ishlar edi. Ularning odatida masjidlar birinchi o'rinda turardi, chunki deyarli barcha masjidlarda maktablar ochilgan.

Har bir maktabdor domlaning ham o'zicha o'qitish usullari bo'lgan. Ularning ba'zilari bolalarning yosh xususiyatlariga alohida e'tibor bergan holda kichik yoshdagi o'quvchilarga xushniyat va og'zaki hisobni o'rgatsa, katta yoshdagi o'quvchilarga esa Qur'onning oyat va suralaridan tashqari fors, arab, turkiy tillarda yozilgan o'nlab hayotiy kitoblarni ham o'qishni o'rgatar edi.

**Tahlil va natijalar.** Madrasalarda o'quv dasturi asosan uch bosqichda: boshlang'ich (adno), o'rta (avsat) va yuqori (a'lo) bochqichlarda olib borilib, unda uch til (arab, fors va turkiy) mukammal o'rgatilgan. Madrasalarda Qur'on ilmi (o'qish usullari, qiroat, tavsif), fiqh (shariat qonunlari), handasa, ilmi nujum, axloq, falsafa, mantiq, adabiyot, jo'g'rofiya, tarix, tabobat fanlari o'qitilgan. Talabalar arab va fors tillari orqali Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr", Hofiz Sheroziy devoni, Mirzo Abdulqodir Bedil devoni, Mir Alisher Navoiyning "Chor devon", Fuzuliy g'azaliyoti hamda Sharqda milliy ta'lim sohasida darslik va qo'llanma sifatida foydalanib kelinayotgan "Maslak ul-muttaqin", "Avvali ilm", "Mu'zi Vazanjoniy", "Avomil", "Harakat", "Qofiya", "Sharqi muloyi Jomiy", "Risolai Shamsiya" kabi risolalar bilan tanishish imkoniga ham ega bo'lganlar. Bu esa madrasalarda



ta'lim jarayonida badiiy adabiyotning mumtoz namunalari keng o'rin olganligi, dunyoni anglash, tafakkurni shakllantirish borasida badiiy asarlarga alohida ahamiyat berilganligini ko'rsatadi.

Madrasalarda bilim olish mumkinligi, bu yerda ham diniy, ham dunyoviy fanlar bo'yicha dunyoga tanilgan mudarrislar, olimlar bor bo'lganligi uchun ham Turkistonda turli mamlakatlardan ko'plab talabalar kelib o'qiganlar [4:5-6].

Payshanba kunlari domlalar uylariga ketganlar, talabalar esa bo'sh vaqtlarini o'yinlar bilan band etganlar. Juma kunlari o'qish bo'lmagan. Talabalar ba'zan bozorga borib roviylarning hikoya va diniy rivoyatlarini eshitar edilar. Juma nomozidan keyin olimlar Qur'on va shariat haqida munozaralar o'tkazishgan. Bunda ko'plab mashhur din arboblari, olimlar, yosh mutaxassislar birgalikda tabiiy fanlar, jo'g'rofiya, tarix, falsafa, badiiy ijod va adabiyotning boshqa sohalarini bo'yicha ma'ruzalar bilan chiqishlar qilgan, o'zaro fikr almashuvlar bo'lib turgan.

Samarqand madrasalarining o'quv kursida tilshunoslik, mantiq, din qoidalari, qonunshunoslik (shariat) hodisalarning sharhi va payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning rivoyatlari to'g'risidagi ta'limot bor edi. Maktabning dastlabki turi – quyi maktab edi. Bu maktablarda 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalar savodga o'rgatilar va dini islom yo'lida tarbiyalanar edi. O'quvchilar hisob bo'yicha to'rt amalni, algebra va geometriyaning boshlang'ich qismini o'rganishardi. 16 yoshdan boshlab, 8 yildan to 15 yilgacha va hatto 20 yilgacha o'qitilar edi. Binobarin, ba'zi bir kishilar madrasani 36 yoshda va bundan ham katta yoshda tamomlab chiqishlari mumkin edi. Madrasada juma va payshanba

kunlari, ramazon oyi va yoz faslida uch oy ta'tildan tashqari har kuni erta tongdan kun botguncha ma'ruzalar o'qilardi.

Samarqandda har bir mahalla, har bir guzarda maktab bor edi. Yaqin atrofdagi masjidning imomi ana shu maktabning domlasi hisoblanardi. Maktablar o'quvchilarning ota-onalaridan yig'iladigan mablag' hisobiga saqlanardi. Bunday maktablarda ham o'qish muddati belgilanmagan edi.

**Xulosa va takliflar.** Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Maktab va madrasai oliyalarda ilm olish muvafaqqiyatli tartibda olib borilganki, XVII-XVIII asrlarda ham bolaning yosh xususiyati alohida e'tiborga olinib, kichik yoshdagi o'quvchilarga husnixat va og'zaki hisob o'rgatilsa, katta yoshdagi o'quvchilarga Qur'onning oyat va suralaridan tashqari fors, arab, turkiy tillarda yozilgan o'nlab hayotiy kitoblarni o'qitish o'rgatilgan.

Movarounnahr madrasalarida ta'lim olayotgan talabalarning hammasi ma'lumot darajasiga qarab uch guruhga bo'linardi. Barcha xizmatchilar va madrasada ta'lim oluvchilar natura va pul bilan ta'minlanar edi. Yuqori guruhning har bir talabasiga har oyda 45 mis dinor va har yili 60 man g'alla, quyi guruh talabasiga 25 dinor va yiliga 30 man g'alla berilar edi.

Demak, dastlabki boshlang'ich ta'limdan so'ng Qur'on hatm qilinib, "Chor kitob", keyin esa "So'fi Olloyor" ibtido qilingan. So'nggra "Kalila va Dimna", "Qobusnoma" singari donishmandlik ruhidagi kitoblar o'qitilgan. O'quvchilarga "Odobnoma" dasturlari asosida dars berilgan. Xalq og'zida yurgan axloqiy, falsafiy ruhdagi maqollar, masallar, majmualar, rivoyatlar, hikoyatlardan esa tarbiya vositasi sifatida foydalanilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. "Ansob as-salotin va tavorixi al-havoqin".
2. A. Asqarov tahriri ostida. O'zbekiston xalqlari tarixi. 2-Tom. – Toshkent, "Fan", 1994.
3. Sagdullaev A. va boshq. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: Akademiya, 2000.
4. J. Yo'ldoshev, S. Hasanov. Jadid tarbiyashunosligi asoslari. – Toshkent, 1994.
5. Matvievskeya G. P. Tillashev X. Matematicheskie i astranomicheskie rukopisi uchenykh Sredney Azii X-XVIII vv. – Tashkent: Fan, 1981.



**Barotjon IBRAXIMOV,**

*Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi*

*E-mail: barotjon2404@gmail.com*

*NamDU dotsenti, falsafa doktori (PhD) M.Maxmudov taqrizi asosida*

### SOCIO-POLITICAL PROCESSES OF THE KOKAN KHANATE

Annotation

In order to highlight and reflect in the article the gradual development of events, we considered it necessary to approach the issue on the basis of the foundation of the Kokand Khanate and the political processes in the Khanate.

**Key words:** Kokan Khanate, Third Renaissance, socio-political processes, nation, Fergana, Minglar, Central Asia, heritage.

### ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ КОКАНСКОГО ХАНСТВА

Аннотация

Чтобы осветить и отразить в статье постепенное развитие событий, мы сочли необходимым подойти к вопросу на основе основания Кокандского ханства и политических процессов в ханстве.

**Ключевые слова:** Коканское ханство, Третье Возрождение, общественно-политические процессы, нация, Фергана, Минглар, Средняя Азия, наследие.

### QO'QON XONLIGI BILAN IJTIMOY – SIYOSIY JARAYONLAR

Annotatsiya

Maqolada voqealarning tadrijiy rivojini qamrab olish va aks ettirish maqsadida masalaga Qo'qon xonligining tashkil topishi va bevosita xonlikdagi siyosiy jarayonlar asosi bo'yicha yondoshishni lozim topdik.

**Kalit so'zlar:** Qo'qon xonligi, Uchinchi Renessans, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, millat, Farg'ona, Minglar, Markaziy Osiyo, meros.

**Kirish.** Barcha siyosiy masalalar qabilalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar orqali hal etilayotgan paytda ushbu traybalizm (*qabilachilik*) an'anasi Minglar urug'ini hokimiyatga olib keldi, bu urug' nafaqat Farg'ona vodiysida, balki Samarqand, Shahrisabz hududi va Zarafshon vodiysida ham yashagan. U kuchli va hukmron urug'lardan biri bo'lib, boshqa urug'lar ustidan hokimiyat yurgizgan. Bilasizki, qabilalarning bu tarzda katta-kichiklikka qarab bo'linishi qozoq juzlari ta'sirida yuz bergan. Yana ma'lumimgizkim, qozoqlar davlati 3 ta juz: Katta, O'rta va Kichik juzlar o'rtasida bo'lib olingan. Har bir juz o'nlab qabilalarni birlashtirgan, ular orasidagi kattalik faqat songa qarab emas, ularni kim boshqarayotganiga qarab ham belgilangan. Ya'nikim, ular, asosan, mulkdorlar bo'lgan, juda ko'p podasi bilan eng yaxshi joylarga ko'chib yurgan. Katta juzdagi eng quyi pog'onada bo'lgan urug' O'rta juzning eng boshida turgan urug'dan baland turgan. O'rta juzning eng quyi pog'onasida turgan urug' esa Kichik juzning bosh urug'idan yuqori bo'lgan. Demak, Abulfayzxon hukmronligi davrida bu qabila ikki hokimiyatchilikdan foydalanib qolgan. Abulfayzxon hokimiyatining so'nggi yillarida markaziy hokimiyatga nisbatan ayirmachilik siyosatini olib borgan viloyatlar beklari va hokimlari Ashtarxoniylar davlatini o'zaro bo'lib olgan edi. Manbalar dalolat berishicha, Abulfayzxonning davlat muammolari bilan ishi bo'lmagan. Pirovardida uning hukmronligi davrida Mang'it urug'idan Hakimbiy otaliq etib tayinlangan. Faqat ugina emas, boshqa urug'lar vakillari ham Buxoro xonligi va Ashtarxoniylar davlatida oliy hokimiyatni egallash uchun kurash olib borgan. Ammo bu da'vogarlar temuriylar yoki chingiziyalar bilan qarindoshlik aloqasi bo'lmagan uchun hokimiyatni to'g'ridan to'g'ri egallashi mumkin bo'lmagan. Shuning uchun o'yin qilishgan [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Shunday qilib, Farg'onada Shohruhbey paydo bo'ladi va 1709-yilda o'zini biy deb e'lon qiladi, chunki xon deb e'lon qilishi mumkin emas edi, ya'ni uning avlodlari Abdurahimbiy, Abdugarimbiy, hatto Olimxongacha o'zini beklar yoki biylar deb deb atagan. Faqat 1802-yilga kelib, Olimxon o'zini xon deb e'lon qiladi. 1810-yili Olimxon o'limidan so'nggi yillarda, Umarxon hukmronligining oxirgi yillariga kelib, Oltinbeshik haqidagi rivoyat paydo bo'ladi, unga ko'ra, minglar urug'ining ajdodlari Zahiriddin Muhammad Boburning shunday ismli o'g'lidan o'rgigan (*kelib chiqqan, tarqalgan*), Bobur o'sha o'g'lini go'yo Farg'onaning Targ'ava degan joyida qoldirib ketgan emish, ya'ni ilk Qo'qon xonlari avlodlari o'sha yerdan kelib chiqqan emish. Men, birinchidan, manbalardan olingan ma'lumotlarni hushyor va aql-idrok bilan tahlil qilaman. Dunyodagi juda ko'plab rivoyatlarda, deylik, bir hukmdorning ajdodi Amon-Radan (Quyosh xudosi) o'rgigan, deb aytiladi. Bundan ko'zlangan maqsad biror kishining yoki muayyan guruh hokimiyatini legitimlashtirishdan (*qonuniylashtirish*) iborat bo'lganini yaxshi tushunaman. Shuning uchun men bu oddiy cho'pchakdan boshqa narsa emas, deb hisoblaydigan olimlar qatoriga kiraman. Bu rivoyat Umarxon hukmronligi davrida o'ylab topilgan edi. U buni saroy shoiri, "malik ush-shuaro" deb atalgan Fazliy Farg'oniyan (aslida Namangoniya – *tarjimon*) "Umarnoma" asarini yozayotganda iltimos qiladi. U o'z avlodlari paydo bo'lishiga Oltinbeshikni ismli farzandni asoschi qilib ko'rsatmagani uchun Fazliy Farg'oniyan xafa ham bo'ladi. Shundan so'ng farog'lik Mushrifga ushbu she'riy asarni qayta yozishni buyuradi va shoir o'sha manbani "Shohnomai nusrat payom" nomi bilan qayta yozib chiqadi. Shoir bu asarda ilk marta Qo'qon xonligining ilk hukmdorlari shajarasini keltiradi. O'sha asar turli variantlarda bizgacha yetib kelgan. Olimlar bu ish bilan shug'ullanmoqda, ammo taassufki, uni haqiqat deb biluvchi olimlar ham bor. Men bu

haqda ko'p marta yozganman, ammo Zahiriddin Muhammad Bobur o'g'lini tashlab ketganiga ishonmayman. Umarxon bunday rivoyatni to'qitirib, go'yo legitim hokimiyatga ega bo'ladi. Oliy siyosiy hokimiyatni nafaqat Minglar urug'i, uning vakili egallaydi, rivoyatda aytilishicha, Qo'qon xonlarining o'sha ajdodi tarbiyasiga qipchoqlar bilan qirg'izlar ham hissa qo'shadi, ya'ni qirg'izlar bilan qipchoqlar uni tarbiyalagan va jang qilishga, otda yurishga o'rgatgan. Demak, qipchoq urug'i vakilasi Oltinbeshikni emizgan. Eng muhimi, uning tarbiyasida chodaklik hojilar vakillari ham ishtirok etgan, ya'ni ushbu guruhlar: minglar, qirg'izlar, qipchoqlar, diniy arboblari – musulmon ruhoniylari vakillari, demak, chodaklik hojilar Qo'qon xonligida siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan. Qo'qon xonligi tashkil etilgunga qadar Farg'onada hokimiyatga chodaklik hojilar egalik qilgan – ular Naqshbandiya yoki Qodiriya tasavvuf tariqati vakillari bo'lgan. Bu haqda manbalarda ma'lumot juda kam. Qo'qon xonligida hokimiyat, siyosiy hokimiyat mana shunday bo'lingan. Ushbu rivoyat Minglar urug'ini va ilk uning vakillarini Zahiriddin Muhammad Boburning soxta o'g'li orqali Temuriylar bilan bog'laydi. Bu Minglar urug'i hokimiyatini o'rnatish va mustahkamlash uchun zarur bo'lgan va shu rivoyat to'qilgan [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ha, bilasizki, Muhammad Shayboniyxon ham qozoqlarga qarshi qo'shin tortib borgan va ularga qarshi muqaddas urush e'lon qilgan. Ya'nikim, Ro'zbekxon "Mehmonnoma va Buxuriy" degan asarida qayd etishicha, Muhammad Shayboniyxon mana shu bosqinlari, talonchiliklaridan so'ng "G'oziy" – "din uchun kurashchi" unvoniga sazovor bo'ladi. Shundan keyin O'rta Osiyoda qozoqlar islom dinidan uzoq, juda uzoq degan tushuncha yuzaga keladi. Ammo aslida bunday emas, chunki Ahmad Yassaviy zamonlaridan beri bilamizki, islom dini qozoqlar o'rtasida tarqalgan, ko'plab qabilalar vakillari va yetakchilari so'fizmning Yassaviya tariqatiga e'tiqod qilgan. 1804-06-yillarda Toshkentni ishg'ol qilgan Qo'qon xoni Olimxon Janubiy Qozog'iston – zamonaviy Janubiy Qozog'istonga qo'shin jo'natadi. Umarxon davrida Qozog'iston janubi bosib olinganini va Sirdaryo qirg'oqlari bo'ylab Qo'qon xonligni istehkomlari qurilganini bilamiz. Ushbu istehkomlar qozoq ovullarini dahshatga solgan, chunki mahalliy qo'qonliklarning hayot tarzi qozoqlarning ko'chmanchilik hayot tarzidan tubdan farq qilgan, ammo qozoqlarning o'zi ham buxorolik, qo'qonlik va xivalik savdogarlarni har doim talagan. Sababi o'zingizga ma'lum: boylik orttirish yo'llaridan biri borimta edi. Borimta [3] qozoq qabilalarining erkak aholisi karvonlarni qo'lga olish va talash uchun tashkil etgan guruhi bo'lgan.

**Tahlil va natijalar.** Bir tarafdin, qo'qonliklar Buxoro savdogarlarini, buxoroliklar esa Xiva savdo karvonlarini talagan, shuning uchun doimiy qarama-qarshiliklar davom etgan. Boshqa tarafdin esa, Pyotr I hukmronligi davrida, ya'ni XVIII asr boshida rus hukmdorlari O'rta Osiyo orqali Hindistonga yo'l topishga uringan. Xabaringiz bor, Pyotr I Bekovich–Cherkasskiy yurishini tashkil qilganda, Xiva xoni Sherg'ozixon uning ishtirokchilarini butunlay qirib tashlagan. O'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasida mana shunday mojarolar bo'lib turgan. Qozoqlar Rossiya fuqaroligini qabul qilganda yoki aynan Anna hukmronligi davrida rus hukmdorlariga bo'ysuna boshlagach, Abulxayrxon hatto qozoqlarni Rossiya fuqaroligiga qabul qilishi so'rab, elchilar yuborgan. Boshqa tarafdin esa, Yermakning yurishlari va Rossiya hukmdorlarining Sibirni egallab olishi Rossiya davlatini O'rta va Markaziy Osiyo xalqi va hokimiyat vakillari bilan yaqinlashtirgan. Shuning uchun qo'qonliklarning hiylanayranglari va karvonlarni talaganlari haqida juda ko'p yozilgan. Ammo bu, asosan, rus armiyasining olg'a siljiyotganini isbotlash uchun kerak bo'lgan, chunki armiyaga savdogarlar, savdo karvonlari xavfsizligini ta'minlash, bu

yerda rus boshqaruvini joriy etish uchun bahona kerak edi. Qo'qon xonlari hukmronligi davrida shunday voqealarni va zamonaviy Qozog'iston hududida mudofaa istehkomlari qurganini ko'ramiz [4].

Olimxonga kelsak, u haqda shunday mish–mishlar tarqatilgani bor gap. Bu hokimiyat uchun kurashayotgan Umarxon boshchiligidagi muxolifat kuchlariga kerak bo'lgan. Olimxonning aybi nima edi? U xalq hisobiga kun kechirgan din arboblari qarshi chiqqan. O'zini chin xalifalar: Umar, Abubakr, Usmon va Alining avlodlari deb e'lon qilgan soxta eshonlarni javobgarlikka tortgan. Bunaqa hojilar guruhi borligini o'zingiz bilasiz. U yana o'z fikricha soxta qadamjolar sig'inishga ham qarshi chiqqan. Shuning uchun, ruhoniylar ham, Umarxon ham, uning atrofidagilar ham Olimxonga qarshi shunday mish–mishlar tarqatgan. Aslida Olimxon shaharlarni tiklash, madrasalar qurish, karvon yo'llari barpo etish va ular xavfsizligini saqlash bo'yicha ishlar olib borgan. Biroq Qozog'iston janubiga va Toshkentga yurish qilib, uni bosib olgandan so'ng Qo'qonga qaytish yo'lida o'ldirilgan. Shundan so'ng 1810-yilda Umarxon o'zini Qo'qon xonligining yangi hukmdori deb e'lon qiladi.

Chindan ham Qo'qon xonligi ko'p millatli bo'lgan. Uning asosiy aholisini o'zbeklar, tojiklar qirg'izlar, qipchoqlar va qozoqlar tashkil qilgan. Qoraqalpoqlar ham bo'lgan. Jungarlar bosqinidan so'ng Qo'qon xonligi hududida yashagan qalmiqlar ham bo'lgan. Qo'qon xonligi o'z hududini Sharqiy Turkistonga qadar kengaytirganda, uyg'urlar va dunganlar ham bu davlatning bir qismini tashkil etgan. Shaharlarda istiqomat qilgan tojik va o'zbek aholisi "sart" etnik nomini olganidan so'ng qiziq muammo paydo bo'ladi. XX asr boshiga qadar, yana ham aniqrog'i, sovet davlati tashkil etilgunga dovor sartlar ikki tili aholi bo'lgan. Ular shahar aholisi edi hamda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga nisbatan biroz boshqacha tushunchaga ega bo'lgan. Ular madaniyatliroq va o'qimishliroq edi. O'sha manbalarda aytilishicha, sartlar qozoqlar, qirg'izlar va qipchoqlarga nisbatan ayyor bo'lgan. Ular, asosan, savdo-sotiq bilan shug'ullangan, orasida shaharda yashovchi hunarmandlar va o'qimishli kishilar ko'p edi. Ammo boshqa tarafdin, yana bir guruh bo'lgan. Siz yirik shaharlarning beklari kim bo'lgan deb savol beryapsiz. Ular, birinchidan, hukmron qabilalar vakillari edi. Ya'nikim, bir zamon tojik aholi vakillari ham bek etib tayinlangan, yana shahar hukmdorlar orasida qipchoq, qirg'iz va o'zbek beklari bo'lgan. Masalan, uzoq vaqt hozirgi Toshkent shahri va viloyatini Pokistonning Chitral shahridan bo'lgan lashkarning beklar begi – bir qul boshqargan. Tojikistonning tog' qismidan bo'lgan tojiklarning Kanadshoh urug'i vakillaridan ham hukmdorlar bo'lgan, Ular Tojikistonning Qorategin va Darvoza degan joylaridan edi, chunki Umarxon faqat Tojikistonning tog' qismidan bo'lgan tojiklar vakillaridan iborat qo'shin tuzgan. Yoki Qushbegi, Mingboshi va Dodxoh aholisining mashhur vakillari bor edi. Qo'qon xonlari devonida ko'plab tojik xalqi vakillari bo'lib, ular o'qitish bilan shug'ullanib, aynan mudarrislik qilgan, kitoblar tuzgan va ularni qayta ko'chirgan. Qirg'iz-qipchoq aholisi har doim Qo'qon xonligidagi markazdan qochish markazi bo'lgan, chunki har doim o'troq hayot tarzi bilan ko'chmanchi hayot tarzi o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelib turgan. Bu hokimiyat uchun, mulkni bo'lib olish uchun kurash ham edi. Esingizda bo'lsa, Musulmonqul hukmronligi davrida qipchoq aholisi Farg'ona vodiysi aholisi uylarini kuch ishlatib tortib olgan. Chindan ham zamonaviy Qirg'iziston hududida – Yettisuvda qirg'iz va qozoq aholisining bir qismi na davlat va na xonlik bo'lib shakllangan bir jamiyat tuzgan, chunki boshchi qabilalar beklari har doim mustaqillik yoki muayyan erkinlik va markaziy hokimiyatdan ma'lum imtiyozlar olish uchun kurashgan. Shuning uchun Qora qirg'izlar xonligi



hukmronligi haqidagi yozma manbalarda juda kam ma'lumot uchraydi.

**Xulosa va takliflar.** XIX asr boshidagi Qo'qon xonligi – Sin imperiyasi qarama-qarshiligida, ayniqsa, 1828-1831-yillardagi voqealarda Yoqubbek ishtirok etmagan. U faqat 1830-yilda tug'ilgan. Ammo Qo'qon xonligining Xitoyning Sin imperiyasi bilan qarama-qarshiligi bo'lgani aniq, chunki Sharqiy Turkiston tarixan Qo'qon xonligi, aniqrog'i, Farg'ona vodiysi bilan bog'langan edi. Hojilarning mana shu qarshi kurashi Umarxon hukmronligi davridan boshlangan. Garchi Sin imperiyasi bilan Qo'qon hukmdorlari o'rtasida hojilarni, aynan Qilichxon avlodlari, oq tog'liklar va qora tog'liklar, hojilar vakillari, Buzurgxon to'ra va boshqalarni Sharqiy Turkistonga o'tkazib yubormaslik haqida kelishuv bo'lgan. Ammo 1824-yili Buzurgxon to'ra Qo'qon xonligi hududidan qochib ketib, Sharqiy Turkistonga keladi va o'sha yerda musulmonlar hokimiyatni egallaydi. 1831-yilda shartnoma tuzilgandan so'ng Qo'qon Sharqiy Turkistonda o'z hokimiyatini joriy qiladi. Sin imperiyasi Qo'qon xonligi hukmdorlariga Sharqiy Turkistondan o'lpon va soliq yig'ishga ruxsat beradi, ya'ni Sin imperiyasi shu yo'l bilan Sharqiy Turkistonda tinchlikni ta'minlab turadi. Ammo bilamizki, 1865-yilda Toshkent bosib olingandan so'ng qirg'iz xalqining

yana bir taniqli vakili, amiri lashkar Alimqul asli piskentlik tojik bo'lgan Yoqubbek Piskentiyni Sharqiy Turkistonga jo'natadi. Ammo u yordam berish o'rniga oliy hokimiyatni egallab oladi va Yoqubbek Badavlat nomi bilan 1877-yilga, ya'ni o'ldirilgunga qadar hukmronlik qiladi. Uning davlati Yettishahar deb atalgan. U o'sha yerda yangi musulmon davlatiga asos soladi, u nafaqat Sin imperiyasi bilan, qolaversa, Qo'qon xonligi bilan toki uni chor Rossiyasi yo'q qilguncha faol siyosat olib boradi. Yana u elchilarini Hindistonga va Britaniya qirolichasi Viktoriya huzuriga jo'natib, undan Yettishahar davlati mustaqilligi va erkinligini himoya qilish uchun yordam so'raydi. Yoqubbek Yettishahar davlatida juda faol yaratuvchilik siyosati yuritadi, chunki uning hukmronligi davrida aynan mahalliy aholining madaniyati yuksaladi. U ko'plab masjidlar, yo'llar va ko'priklar qurdiradi. Juda ko'p asarlar turkiy tilga tarjima qilinadi, ya'ni u Sharqiy Turkistonda mana shunday madaniy siyosat olib boradi. Bu, albatta, Sin imperiyasi vakillariga yoqmas edi. Nihoyat, 1878-yilda Yettishahar davlati yo'q qilinadi. Uning Qo'qon xonligi bilan shunday genetik aloqasi bo'lgan. Hozirgi kunda Yoqubbekning avlodlari O'zbekiston, Tojikiston va Sharqiy Turkistonda istiqomat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. – Б. 46-48.
2. Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Т., 1996. – 43.
3. Borimta (chig'atoy tilida بۇرۇم تۇتا "javoban talonchilik qilish", qozoq tilida esa "mening ulushim", "menga qarz bo'lgan narsa" ma'nolarini anglatadi) – turkiy ko'chmanchi xalqlardan xafa qilgani uchun chorvasini tortib olish yoki yetkazilgan zarar uchun muzd berish.
4. Худайкулов Т. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. Тарих фанлари ном. дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 34-40.
5. Botirovich I. B. (2023). ABOUT THE LOCATION OF THE TAJIK POPULATION IN THE KOKAND KHANATE. <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/4170>



UDK: 297.34(594.4)

**Bekjon QURBONOV,**

*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti O‘quv-uslubiy bo‘lim uslubchisi*

*Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti*

*ORCID: 0000-0003-4555-6937*

*E-mail: bekjon.qurbonov@gmail.com*

*Tarix fanlari doktori, professor A.Xasanov taqrizi asosida*

## O‘ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI TARIXIGA BIR NAZAR

Аннотация

O‘zbekiston musulmonlari idorasi mamlakatimizda nufuzi yuksak nodavlat notijorat tashkilotlardan biridir. Mo‘min-musulmonlar birdamligini ta‘minlash, toat-ibodatlar uchun zarur sharoitlar yaratish, Islom ahkamlarini aniq va to‘g‘ri yetkazish, toat-ibodatlar uchun qulayliklar yaratish, musulmonlarning aqidaviy birligini saqlash, ajdodlarimizning tarixiy merosini tadqiq etish, xayriya ishlarini olib borish, jamiyatda totuvlikni ta‘minlash O‘zbekiston musulmonlari idorasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridir.

**Kalit so‘zlar:** diniy idora, davlat va din, musulmon tashkilotlar, VAQF, madrasa, masjid, vakillik idoralari, fatvo markazi, diniy ta‘lim.

## ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ УПРАВЛЕНИЯ МУСУЛЬМАН УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

Управление мусульман Узбекистана – одна из самых влиятельных неправительственных некоммерческих организаций в нашей стране. Обеспечение единства верующих-мусульман, создание необходимых условий для послушания и поклонения, четкое и правильное изложение правил ислама, создание условий для послушания и поклонения, поддержание идеологического единства мусульман, исследование исторического наследия наших предков, проведение благотворительная деятельность, обеспечение согласия в обществе являются основными направлениями деятельности Управления мусульман Узбекистана.

**Ключевые слова:** религиозное учреждение, государство и религия, мусульманские организации, фонд, медресе, мечеть, представительства, центр фетв, религиозное образование.

## A GLANCE AT THE HISTORY OF THE MUSLIM BOARD OF UZBEKISTAN

Annotation

The Office of Muslims of Uzbekistan is one of the most influential non-governmental non-profit organizations in our country. Ensuring the unity of believers-Muslims, creating the necessary conditions for obedience and worship, clearly and correctly conveying the rules of Islam, creating facilities for obedience and worship, maintaining the ideological unity of Muslims, researching the historical heritage of our ancestors, carrying out charity work. going, ensuring harmony in the society are the main directions of the activities of the Office of Muslims of Uzbekistan.

**Key words:** religious office, state and religion, Muslim organizations, foundation, madrasa, mosque, representative offices, fatwa center, religious education.

**Kirish.** O‘rta Osiyo va Qozog‘iston diniy boshqarmasi dastlab 1943-yilda tashkil topgan bo‘lib, ikkinchi jahon urushining eng og‘ir paytlarida sobiq ittifoq aholisining islom diniga bo‘lgan munosabati ijobiy tomonga o‘zgarib boshladi. Ateizm o‘rniga o‘zbeklar musulmonlarcha bag‘rikenglikdan najot topdilar. Mahalliy aholining iltimosi bilan, musulmonlarni birlashtiruvchi tashkilot tuzish maqsadida, Eshon Boboxon hazratlari boshchiligida bir guruh faollar O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Yo‘ldosh Oxunboboevdan ruxsat so‘rashadi. Oxunboboyev bu haqda Moskva bilan muzokaralar olib boradi va ruxsat olishga erishadi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bu mavzu bo‘yicha mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlardan professor S.A‘zamxo‘jayev [2], tarix fanlari doktorlari B.Bobojonov va A.Mo‘minovlarning bir necha kitob va maqolalarini, A.Salmonov [3], Y.Jahongirov hamda R.Yusupovlarning professor I.Alimov rahbarligida amalga oshirgan tadqiqotlarini sanab o‘tish mumkin. Bundan tashqari germaniyalik Seyfiddin Ershahin “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy nazoratiga bag‘ishlangan ulkan maqolasi

va dissertatsiyasida idoraning davriy nashrlariga deyarli e‘tibor qaratmagan va tadqiqotda o‘sha davrdagi bir necha ulamolar faoliyatini yoritib, ular haqida qisqa, ammo, afsus, noaniq malumotlar keltirgan [5]. Daniyalik Maria Elisabeth Louw [6], pokistonlik Adeeb Khaled [7], John Schoeberlein[8], Ahmad Nur Fuad[9] Shuningdek, rossiyalik mutaxassislar tomonidan ham bu borada talaygina ishlar amalga oshirilgan, xususan, qator hujjatlar chop etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda davlatimizda milliy qadriyat – din omili, diniy bag‘rikenglikning o‘rni, uning mazmun-mohiyati hamda asosiy tamoyillari, musulmon dunyosidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bag‘ishlangan turli janr va tillarda yozilgan o‘ndan ortiq tadqiqot ishlari va asarlari mazkur ishning manbalarini tashkil etadi.

Tadqiqot ishida obyektga oid davlat me‘yoriy hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlaridan foydalanib iqtibos keltirildi.

Toshkent islom instituti joriy arxividan olingan ma‘lumotlar va institut kutubxonasida saqlanayotgan mustaqillikning dastlabgi yillariga oid o‘yinmalar asosida

dissertatsiya to'ldirildi.

Maqolani tayyorlash jarayonida muallif yetakchi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarining asarlarida ilgari surilgan metodologik xarakterdagi nazariy holatlar va tavsiyalardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida, Respublika oliy hukumat organlari qarorlari va asos hujjatlarida ilgari surilgan mustaqillik, obyektivlik va tarixiylik tamoyillariga maksimal darajada amal qilishga harakat qilgan. Tadqiqot davomida umumiy va tizimli tahlil ko'rsatilgan.

**Tahlil va natijalar.** 1943-yilda Moskvada Eshon Boboxon hazratlari Iosif Stalin bilan uchrashadi. Stalin unga musulmon ulamolari qurultoyini chaqirishni, ularga urushda g'alabaga erishish uchun amaliy yordam berish yo'llarini qidirishni taklif etishni aytadi. Shu tariqa 160 kishidan iborat qurultoyda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasini tashkil yetish va Eshon Boboxon hazratlarini muftiy etib saylash to'g'risida qaror qabul qilindi. Boshqarma tashkiliy tuzilmasi sifatida Hay'at (11 kishi), taftish hay'ati (5 kishi) va Respublikalarda qoziyotlar faoliyatini boshlaydi. O'sha yillari musulmonlar vakillarining haj safariga borishlari yo'lga qo'yildi, "Mir Arab" madrasasi qaytadan faoliyat boshladi (1945), masjidlar haqida Nizom ishlab chiqildi, diniy boshqarma kutubxonasiga asos solindi, xalqaro aloqalar kengaydi [10].

Shuningdek, qurultoy mintaqadagi beshta jumhuriyatning har birida "qozi" boshchiligidagi O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasining "qoziyot" (vakolatxona)sini tuzish haqida qaror qabul qildi. Xususan, shayx Ziyovuddinxon Boboxonov – O'zbekiston, Shayx Abdulg'affor Shamsuddin – Qozog'iston, Shayx Solih Bobokalon – Tojikiston, Olimxon To'ra Shokir – Qirg'iziston, Shayx Anna Eshon – Turkmaniston bo'yicha "qozi" etib tayinlandilar [11].

Shayx Eshon Boboxonov muhim diniy masalalarni muhokama qilish uchun O'rta Osiyoning turli burchaklaridan taniqli ulamolarni muntazam Toshkentga taklif eta boshladi. Keksayib qolganiga qaramay, o'zi ham ittifoq hududi bo'ylab ko'p safar qilardi. O'zining uyini diniy idoraga vaqf qiladi va idora shu yerda 1943-yildan 1954-yilgacha faoliyat olib boradi. 1954-yildan Baroqxon madrasasi binosiga ko'chgandan so'ng bu hovli idoraning mehmonxonasiga aylantiriladi [12]. Unda uzoqdan kelgan mehmonlar va talabalar turishadi [13]. 1954-yildan to 1992-yilgacha O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi Baroqxon madrasasi binosida faoliyat yuritdi. 1992-yildan 2006-yilgacha Baroqxon madrasasi, avval "Movarounnahr" musulmonlari idorasi, keyinchalik O'zbekiston musulmonlari idorasining qarorgohi bo'ldi [14].

1957-yildan boshqarmaga Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon hazratlari muftiy etib saylandi. Yangi muftiy tashabbusi bilan SSSR hududida Qur'oni karimning nusxalari va tarjimalari, Imom al-Buxoriyning "Al-Jomi' as-Sahih" hadislar to'plami nashr etildi hamda 1971-yilda Toshkentdagi Namozgoh masjidi binosida Imom Buxoriy nomli Toshkent islom instituti tashkil topishi diniy ta'limga katta yo'l ochdi. 1929-yil O'zbekistonda diniy ta'lim tizimi batamom to'xtatilgan edi. Oradan qariyb qirq yil o'tib Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon hazratlari diniy ta'lim tizimini rasmiy ko'rinishda tiklashga muvaffaq bo'ldilar.

1990-yilda Qozog'iston qoziyati diniy boshqarma tarkibidan chiqib ketdi va Qozog'iston musulmonlari idorasi tashkil topdi. 1992-yil 27-fevralda bo'lib o'tgan O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston musulmonlarining 5-qurultoyi qaroriga ko'ra Movarounnahr musulmonlari idorasi deb atala boshlangan [15]. Movarounnahr musulmonlari ulamolarning kengashining 1995-yil 4-dekabr majlisida tasdiqlangan

Nizomga asosan "Movarounnahr musulmonlari idorasi" nomi "O'zbekiston musulmonlari idorasi" deb o'zgartirildi [16].

O'zbekiston musulmonlari idorasining oliy boshqaruv organi ulamolarning kengashi, oliy ijro organi oliy hay'at bo'lib, unga muftiy rahbarlik qiladi. Muftiyga o'rinbosar va huquqiy maslahatchilar, shuningdek, bo'lim mudirlari yordam ko'rsatadilar. Idora viloyatlarda va Qoraqalpog'iston Respublikasida o'zining vakillarini tayinlagan va musulmonlarning diniy hayotlariga oid barcha tadbirlarni ular bilan hamkorlikda amalga oshirib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida milliy tiklanish borasidagi eng katta ishlarning bir qismi xalqimizning ma'naviy-ruhiy olamining ajralmas qismi bo'lgan islom diniga yo'l ochilgani bilan ifodalanadi. Bu yillarda mamlakatimiz o'z siyosatini belgilab olar ekan, muqaddas dinimizga alohida e'tibor qaratdi. Jamiyatda milliy-diniy qadriyatlar rivojini ta'minlash, ularni turli tashqi tahdidlardan himoya qilish, jamiyat ma'naviy dunyoqarashidagi ruhiy, psixologik, axloqiy, diniy jihatlarining uyg'unligini ta'minlash, unga qarshi qaratilgan tahdidlarning oldini olish va jamiyat a'zolari manfaatlarini himoya qilishda diniy-ma'rifiy sohada islohotlar o'z o'rniga ega.

O'zbekiston musulmonlari idorasi masjidlar orqali musulmonlarga islom ahkomlarini aniq va to'g'ri talqin etishda yordam beradi, islom dini tarixiga oid nodir qo'lyozmalar va kitoblarni to'plash hamda ularni tadqiq qilish, muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil qilish bilan shug'ullanadi. O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida bugungi (10.04.2024ga ko'ra) kunga kelib 2132 masjid faoliyat ko'rsatmoqda. Masjidlarda 5000 dan ziyod imom-xatiblar, imom-noiblar va muazzinlar fuqarolarga xizmat ko'rsatmoqdalar.

O'zbekiston Musulmonlari idorasi tasarrufidagi Toshkent islom instituti, Mir Arab Oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi va 10 ta o'rta maxsus islom bilim yurtlari, jumladan 2 ta ayol-qizlar madrasasi imkoniyatlaridan foydalanib kelmoqda. Ularda 2000 dan ziyod talabalar ta'lim olishmoqda. Shuningdek, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy merosimizni o'rganish va targ'ib qilishga xizmat qilmoqda

Shuningdek, yurtimizda 5 ta ixtisoslashgan ilmiy maktab faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, diniy ta'lim muassasalari va ilmiy maktablarda yurtdoshlarimiz uchun "Qur'oni karim va tajvid" o'quv kurslari ishlab turibdi.

Tashkilot turli mamlakatlarning diniy idora va islomiy tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi. Ayni vaqtda qadar Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Misrning Al-Azhar majmuasi bilan hamkorlik memorandumi imzolangan.

Har yili 7 mingdan ziyod yurtdoshlarimiz haj ibodatini ado etib kelishmoqda. Umra safariga boruvchilar uchun esa kvota belgilanmagan.

Diniy idora huzuridagi "Vaqf" xayriya jamoat fondi masjidlar va diniy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik ehtiyojini ta'minlaydi, vaqf, zakot (fitr, ushr) va xayriya mulklarini tasarruf etib, haqdorlarga yetkazadi va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi vakillarini qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida "Shamsuddinxon Boboxonov" nashriyat-matbaa ijodiy uyi faoliyat yurgizmoqda. Shuningdek, "Hidoyat" va "Mo'minalar" jurnallari, "Islom nuri" gazetasi O'zbekiston musulmonlari idorasining davriy nashrlari sifatida chop etib kelinmoqda.

**Xulosa.** O'zbekistonda faoliyat ko'rsatgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasining 1943-1991-yillardagi faoliyati o'lka musulmonlari madaniy-ma'rifiy hayotida islom an'analarining qayta tiklanishida ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan. Sovet tuzumining tazyiq va

keskinliklari Diniy boshqarmaning ichki va tashqi faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Bu jarayonda musulmonlar hayotidagi muhim o'zgarishlardan biri islom ta'lim muassasalari faoliyatiga rasmiy ruxsat berilishida ko'zga tashlanadi. Diniy boshqarma rahbarlari diniy ta'lim muassasalarining o'quv faoliyatini tashkillashtirishda faol ishtirok etganlar. Bu

talabalar sonini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularning xorij islom universitetlarida tahsil olishlari yuzasidan qator tadbirlar olib borilganligida ko'zga tashlanadi. O'zbekiston musulmonlari idorasining asosiy tamoyillari va uning Respublikada tutgan o'rni va ahamiyatini o'rganish amalga oshirildi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ислам и мусульмане в Стране Советов. – Москва, 1980.
2. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти: Миллий-демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси. – Тошкент: Маънавият, 2000.
3. Салмонов А. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати. – Т. Tafakkur. 2015.
4. Юсупов Р. Ўзбекистонда мусулмон диний ташкилотлари ва уламолари фаолияти. – Тошкент: Мухаррир нашриёти, 2020.
5. Ersahin S. The Official Interpretation of Islam under the Soviet Regime a Base for Understanding of Contemporary Central Asian Islam // Journal of Religious Culture (Journal für Religionskultur) Ed. by / Hrsg. von Edmund Weber in Association with / in Zusammenarbeit mit Matthias Benad Institute for Irenics / Institut für Wissenschaftliche Irenik. Johann Wolfgang Goethe-Universität Frankfurt am Main, No 77, 2005.
6. Maria E. Everyday Islam in Post-Soviet Central Asia. - New York: Routledge. 2007.
7. Khaled A. Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. University of California Press: 2007
8. Schoeberlein J. Islam in the Ferghana Valley: challenges for new states. 2001 / Islam and Politics in Central Asia.
9. Ahmad N. Tradisi Intelektual Muslim Uzbekistan. Surabaya: UIN Sunan Ampel Press, 2013.
10. Ахмадуллин В. А. Особенности советской двухуровневой подготовки исламских кадров: опыт и уроки // Ислам в современном мире: внутригосударственный и международно-политический аспекты, 2015.
11. Фафуров У. Ўзбекистонда ислом таълим тизими: шонли тарих, истибод зулмидан омон қолиш ва нурли истиқбол. – Тошкент: Фафур Фулом, 2023.
12. O'zSSR Ministrlar Sovetining 1954-yil 30-avgustdagi 1470-sonli qarori.
13. Иброҳимов А. Ўтиқодга бахшида умр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.
14. Усмонхўжаев А. Динимиз фидойилари (тарих, хотиралар, сабоқлар). – Тошкент: Тафаккур, 2021.
15. Кароматов Ҳ. ва бошқалар. Ислам зиёси ўзбегим сиймосида. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2001.
16. Алимов У. Ўзбекистон мусулмонлари идораси. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2020.



Nodira NAZARQULOVA,  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi

O'zbekiston Milliy universiteti tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) O.Radjabov taqrizi asosida

### EDUCATION OF WOMEN IN KOREA AT THE EVE OF THE 20TH CENTURY

Annotation

The end of the 19th century and the beginning of the 20th century are the period of acquaintance with Western culture and Christianity for Korean women. At the same time, the traditional social order and Confucianism, which was strict and bigoted towards women, could not justify itself in the process of integration that began after 1876. As the opportunities for Korean intellectuals to go outside Korea increased, they realized that the problems were not only in economic or political life, but also the social and cultural situation was deplorable. In this place, it was considered that the process of implementing reforms would not bring any benefits as women would be left out of education. This article examines how women's education was at a time when new ideas began to enter and how the situation changed with the beginning of the reforms, using contemporary sources, works of Korean and other researchers.

**Key words and concepts:** hyanggo, sohak, kwago, Queen Sohye, So Che Phil, New Confucianism, Tonga Ilbo, Christianity, sinso yuran dam.

### ОБРАЗОВАНИЕ ЖЕНЩИН И ДЕВОЧЕК В КОРЕЕ НАКАНУНЕ XX ВЕКА

Аннотация

Конец 19 и начало 20 века – период знакомства корейских женщин с западной культурой и христианством. В то же время традиционный общественный строй и конфуцианство, строгое и фанатичное по отношению к женщинам, не смогли оправдать себя в процессе интеграции, начавшейся после 1876 года. По мере того, как возможности корейских интеллектуалов выезжать за пределы Кореи увеличивались, они осознавали, что проблемы заключаются не только в экономической или политической жизни, но и в том, что социальная и культурная ситуация была плачевной. Здесь считалось, что процесс проведения реформ не принесет никакой пользы, поскольку женщины останутся вне образования. В данной статье на основе современных источников, работ корейских и других исследователей рассматривается, каким было женское образование в то время, когда начали проникать новые идеи, и как изменилась ситуация с началом реформ.

**Ключевые слова:** хянго, сохак, квато, королева Сохе, Со Че Фил, новое конфуцианство, Тонга Ильбо, христианство, синса юран дам.

### KOREYADA XX ASR ARAFASIDA XOTIN-QIZLAR TA'LIMI

Annotatsiya

XIX asr oxiri – XX asr boshlari koreys xotin-qizlari uchun G'arb madaniyati va xristianlik bilan tanishuv davri hisoblanadi. Ayni vaqtda, an'anaviy jamiyat tartiblari va ayollarga nisbatan qattiqqo'l hamda mutaassib bo'lgan konfutsiychilik 1876-yildan keyin boshlangan integratsiya jarayonida o'zini oqlay olmay qoldi. Koreys ziyolilarining Koreyadan tashqariga chiqish imkoniyatlari oshgani sari, ular muammolar nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy hayotda, balki ijtimoiy va madaniy ahvol ham achinarli ekanligini anglab borishgan. Bu o'rinda islohotlarni amalga oshirish jarayoni ayollarning ta'limdan chetda qolishi bilan xech qanday foyda keltirmaydi deb hisoblangan. Ushbu maqolada, yangi g'oyalari kirib kelishni boshlagan bir paytda xotin-qizlar ta'limi qanday bo'lganligi hamda islohotlar boshlanishi bilan holat qanday o'zgariganligi olingan davrga oid manbalar, koreyalik va boshqa tadqiqotchilarning ishlaridan foydalanib o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** hyanggo, soxak, kvago, qirolicha Sohye, So Che Phil, yangi konfutsiychilik, "Tonga ilbo", xristianlik, sinso yuran dam.

**Kirish.** Choson qirolligi davrida oddiy aholining katta qismi rasmiy ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Oliy toifa vakillariga (ya'ni, yangbanlar) *sovon* deb ataluvchi xususiy ta'lim maskanlariga borish imtiyoziga ega bo'lishgan. Har bir okrugda *hyanggo* va har bir shaharda o'qimishli kishi tomonidan yurgiziladigan *sodang* joylashgan bo'lib, *sodangni* tugatgan o'g'il bola *hyanggoga* o'tkazilgan. *Hyanggodan* keyingi bosqichda Milliy konfutsiychilik akademiyasi – *Song gyungvan* turib, u Seulda joylashgan hamda davlatdagi eng oliy ta'lim maskani hisoblangan. Butun ta'limdagi o'qitiladigan fanlar majmuasi cheklangan bo'lib, aniq va tabiiy fanlardan ko'ra, Xitoy mumtoz falsafasiga ko'proq urg'u berilgan. Qishloq maktablarida ta'limning maqsadi – bolalarni kelgusida davlat xizmatlariga qabul qilishga qaratilgan imtihon tizimi – *kvagoga* tayyorlashni ko'zda

tutgan. Butun ta'lim tizimining mazmuni o'quvchilar ongiga yangi konfutsiychilikning "inson shaxs sifatida bosqichma-bosqich o'sadi" degan falsafasini singdirishdan iborat bo'lgan. Bunday bo'linish nafaqat ijtimoiy tabaqalar o'rtasida, balki qiz bolalar va o'g'il bolalarni o'qitishda ham keskin bilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Koreyaning o'zida xotin-qizlar ta'limi masalalarining tarixiy jihatlarini bir qator tarixchilar tomonidan o'rganilgan. Ular orasida Nan Yong Park, Hyaveol Choy, Shin Chon Shik, Kyung Mun Xvan, Eui Yong Yu, Jihang Pak, Jong Kyu Li, Shin Ki Yong larning tadqiqotlari qimmatli manbalar hisoblanadi. Hyaveol Choy XIX asr oxiridan hozirgacha bo'lgan davrda koreys ayollari tarixining turli jihatlarini kompleks tarzda o'rgangan. Olimning 1876-1945-yillarga oid davriy nashrlar hamda biografiyalari, esdaliklarning tarjima qilinish jarayoniga bosh-



qosh bo'lib, ularni zamonaviy koreys tili hamda ingliz tilida chop etilishidagi xizmatlari qimmatli bo'lib, ayniqsa, yapon va xitoy tiliga oid iyerogliflarning koreys va inglizchaga o'g'irilishi koreys bo'lmagan tadqiqotchilar uchun davrni o'rganishda juda qo'l keladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning uslubiy asosini obyektivlik va tarixiylik prinsipi, fenomenologik va germeneytik yondashuvlar, tizimlashtirish usullari tashkil etadi. Shuningdek, maqoladagi ma'lumotlarni tahlil etishda statistik usuldan ham foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Qizlar ta'limi o'g'il bolalar ta'limidan keskin farq qilib, ko'pchilik qizlar uchun *kyoyuk* asosan, uy xo'jaligi yumushlarini o'rganishdan iborat bo'lgan, xolos. Biroq shunga qaramay, ayollar orasida o'qimishlilari ham uchrab turgan. Bu haqida XIX asr oxirida xristianlikni yoyish uchun yarimorolga tashrif buyurgan rohib Jorj Gilmor (1868-1923) shunday yozadi: "Ular [ya'ni, ayollar] ta'limda ishtirok etishmagan. Vaholanki, biz yarimorolning ertak va afsonalarida ta'lim ko'rgan ayollar va shu kabi qahramonlarni hozirda va takror-takror eshitamiz: ular o'zlarining [bunday tizimda] istisno holat ekanligini ochiq-oydin ko'rsatadi hamda shu yo'l bilan mo'jiza hisoblanishadi".

Ayollarni ta'limdan masofada tutib turish davlat miqyosidagi siyosat bo'lganligi bois ham, ular "*Samgang hengshildo*" ("Uch munosabatning illyustratsiyalangan yo'riqnomasi"): sadoqat, farzandlik burchi hamda bokiralikni bilishi yetarli edi.

Savol tug'iladi: nega shunchalik jiddiy mafkuraviy qarshilikka qaramay, Choson hukumati oxir-oqibatda ayollarning ta'limini rag'batlantirish yo'lidan bordi? Albatta, avval boshida hokimiyatning o'zi bu ishga bosh-qosh bo'lmagan bo'lsa ham, ayollarni o'qitishga bo'lgan faol harakatlarni ta'qib qilishni kamaytirgan, zero bu ham muhim burilish bo'lgan edi.

XIX asrning so'nggi choragi xalqaro maydonda muhim siyosiy o'zgarishlarning sodir bo'lgani bilan tarixda qolgan. Eng avvalo, Yevropada kapitalistik davlatlarning to'liq shakllanib bo'lishi hamda AQShning ichki muammolarini qisman hal qilib, o'z e'tiborini xalqaro siyosatga yo'naltirishi bilan bog'liq. Kuchli davlatlar xomashyo va arzon (yoki tekin) ishchi kuchi hamda mahsulotlarini sotish uchun bozorlar qidirgan. Birinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda (1870-1914) Osiyo va Afrikaning rivojlanishidan ortda qolgan barcha davlatlari mustamlakaga aylantirilgani ana shu jarayonning to'g'ridan-to'g'ri natijasi hisoblanadi.

Qulay geosiyosiy joylashuvi bois Koreya yarimoroli kuchli davlatlarni o'ziga tortgan. Yarimorolni o'rganish hamda unga turli g'arbonga g'oyalarni yoyish orqali o'ziga tarafdorlarni og'dirish maqsadida XIX asr oxiridan mamlakatga har doimgidan ham ko'proq chet elliklar tashrif buyurishni boshladi. 1876-yilgi Kanghva bitimidan keyin asta-sekinlik bilan yangicha bilim va texnologiyalar kirib kela boshladi. Yi sulolasi saroyi chet elliklarning siyosatiga muqobil javob berish yo'llarini qidirgan. Sulola mamlakatdagi ta'sirini yo'qotib qo'yish, chet elliklar ta'siriga tushib qolib, mustamlakaga aylanib qolishdan qattiq xavotirga tushgan. Shundoq ham mamlakatning ichida norozi harakatlar hamda guruhlar ko'payib, ichki beqarorlikni kuchaytirayotgan edi. Shu sabablarga ko'ra, Choson hukumati oldida murosaga kelishdan boshqa chora qolmaganligi oydinlashadi.

Davlat darajasidagi o'zgarishlarning birinchi to'lqini Tevongun (1829-1898) iste'fosidan so'ng *Kehva* [rivojlanish, gullab-yashnash] fraksiyasi boshqaruvda ustunlikni olib, oldingi izolatsionizm siyosatini bekor qilgan holda ochiq eshiklar siyosatini e'lon qilishi bilan boshlandi. Yosh, erkin fikrlaydigan ziyolilardan tashkil topgan bu guruh modernizatsiyaga nisbatan ko'proq murosasozlik kayfiyatida

bo'lib, Tevongunning yopiq siyosatini bekor qilishga intilishgani tabiiy holat. Shuningdek, bu guruhning faoliyati otasi Hunson Tevongundan ko'ra ko'proq xotini qirolicha Minning ta'siri ostida bo'lgan qirol Kojong (qirolik davri: 1863-1907) tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan. Aynan qirol Kojong saroyini hukumatdagi o'ta konservativ guruh yetakchilarning qattiq qarshiligiga qaramay Choson qirolligi yopiq siyosatni bekor qilib, o'zini o'zi kuchaytirish hamda ma'rifatparvarlik davriga o'tishiga ishonтира olgan edi. Qirolning otasi iste'fosidan so'ng boshlagan mamlakat miqyosidagi islohotlari o'zgarishlarning ikkinchi to'lqini hisoblanadi. Qirolning davlat kelajagi uchun qilgan eng muhim qarorlaridan biri esa – G'arb ta'lim tizimini mamlakatga kirib kelishiga imkon yaratishdan iborat. Ayni vaqtda qirolicha Min koreys xotin-qizlarini o'qitish uchun bir qator amerikalik missioner ayollarni ham moliyaviy tarafdin, ham o'z ta'sir doirasida boshqa masalalarda qo'llab-quvvatlangan. Qirolchanning o'sha davrda ta'limda amalga oshirgan ishlari Koreyada ayollar ta'limi, muvaffaqiyati va erkinligiga qo'yilgan poydevor bo'ldi deyish asosli bo'lar edi. Garchi, qirolicha missionerlar tomonidan ayollar maktablari ochilishini qo'llab-quvvatlashni hali hokimiyat qaynotasining qo'lida bo'lgandayoq boshlagan bo'lib, Tevongunning saroydagi eng jiddiy muxolifi ham qirolicha bo'lganligi tarixiy manbalar hamda o'sha paytda mamlakatda bo'lgan chet elliklarning kundalik va esdaliklaridan ham ma'lum. Qirolchadagi bu shijoat va qat'iyatlilik koreys ayollarini hozirgacha ham ruhlantirib kelayotgani xech kimga sir emas. Qirolchanning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishlari uning o'limidan so'ng qirol Kojong tomonidan davom ettirilib, o'rta va quyi qatlamga mansub nafaqat ayollarni, balki erkaklarni ham davlat rivoji uchun kurashga ruhlantirgan turtki bo'ldi.

Qirol Kojong o'zgarishlarni qo'shni Yaponiya va Xitoyga missiyalar yuborishdan boshlagan. Marosimlar vazirligi vazir o'rinbosari Kim Hong Jip (1842-1896) 1880-yilda Yaponiyaga birinchi do'stlik missiyasi bilan boradi. Ellik sakkiz nafar vazirdan iborat bu elchilik missiyasining asl maqsadi Kanghva bitimining qayta ko'rib chiqilishiga erishish, Chemulpo [hozirgi Inchon port] jining ochilishini kechiktirish, universitetlar, oddiy maktablar, qizlar maktablari, kasb-hunar maktablari hamda harbiy bilim yurtlarini borib ko'rishdan iborat bo'lgan. 1881-yilda hukumat oltmish to'qqiz nafar rasmiylar, talabalar hamda hunarmand-kosiblardan iborat yana bir elchilik missiyasini Xitoyning Sin imperiyasiga Tientsinga harbiy mashg'ulotlar va qurol-yarog' ishlab chiqarish jarayonini o'rganish uchun yuboradi. Biroq koreyslar uchun mahsuldor bo'lgan safarlar Yaponiyaga uyushtirilganlari bo'lgan. Shubhasiz, Meydzi inqilobi tufayli Sharqiy Osiyoda eng rivojlangan va qudratli davlatga aylangan bo'lib, G'arbdagi rivojlangan davlatlarga yetib olgan va hattoki, ba'zi sohalarida ulardan o'zib ham ketgan edi. Yaponiyaning o'sha vaqtdagi yutuqlaridan ruhlangan qirol Kojong 1881-yilning oktyabrda yigirma yosh amaldorlarni uch oylik muddatga o'ziga xos *sinsa yuram-dan* [olijanob kishilarning sayohat guruhi] deb nomlangan missiyasini yuboradi. Bu missiya uch oylik muddatda yapon hukumat idoralarni, kemalar qurilib-ta'mirlanadigan verflar, odatiy maktablar, qizlar maktablari, sanoat korxonalari, shifoxona va qamoqxonalarni borib ko'rishi zarur edi. Delegatsiyaning har bir a'zosi o'z taassurotlari haqida batafsil hisobotlar berishlari belgilangan. Missiya ishtirokchilari nafaqat Yaponiyaning industrial va administrativ boshqaruvini o'rganishgan, balki bu mamlakatda bo'lish davomida, sanoatlashtirish va zamonaviylashtirishga yondosh sodir bo'layotgan ijtimoiy va madaniy rivojlanish tendensiyalariga ham guvoh bo'lib qaytishgan edi.

Delegatsiyalar faoliyati sirxak va tongxak harakatlari ilgari surgan ayollar ta'lim olishi hamda ijtimoiy hayotda faol

bo'lishi hayotiy muhim masala degan fikrlarini isbotlagan qarorlar chiqarib qaytishgan [1]. Jumladan, delegatlar o'g'il bolalar va qiz bolalar birgalikda o'qiydigan bir qancha maktablarga duch kelishgan. Natijada ularning ba'zilari haqiqiy zamonaviy millatga aylanish uchun fundamental iqtisodiy islohotlarning o'zi kamlik qiladi, ularga qo'shimcha oilada va umuman jamiyatda ayollarning rolini qayta ko'rib chiqish zarur degan xulosaga kelishgan. Bundan ham muhimi ayollar ta'limining ijtimoiy qiymati va siyosiy foydaliligini anglab yetishgan. Ularning qarashlariga ko'ra, o'qimishli onalar kelgusida millatning axloqiy va intellektual kuchiga aylanuvchi tajribali va ziyoli o'g'illarni tarbiyalay oladi. Aytish joizki, bu o'rinda ham patriarxal koreys jamiyati uchun o'ziga xos an'ana – donishmand ona g'oyasining ta'siri ko'rinib turibdi. Choson qirolligi davri koreys jamiyati ham, hozirgi davr koreyslari ham ayolga mustaqil individ sifatida qarashdan oldin, unga oila a'zosi va undan ham muhimrog'i – ona sifatida qaraydi. Ayolning mavqei uning shaxs sifatida kimligi bilan emas, ona sifatida qanday xususiyatlarga egaligi bilan qadrlanishi ayollarning ijtimoiylashuvi va erkin kasb tanlashi, qiziqishlari bilan shu'gullanishi uchun jiddiy to'siq vazifasini bajargan va hozirda ham ayni qarash, ming afsuski, o'z ta'sirini yo'qotmagan.

Yaponiyalik hamkasblari tomonidan Ri Jutei nomi bilan mashhur bo'lgan Yi Su Jong Chosonda birinchi qizlar maktabini ochish zaruriyatini anglab yetgan islohotchilardan biri edi. 1882-yilning sentabrida Yaponiyaga tashrif buyurgan ikkinchi diplomatik delegatsiya tarkibida bo'lgan Yi qishloq xo'jaligi sohasida yetakchi mutaxassis hamda xristianlik harakati yetakchisi Tsuda Sen bilan birgalikda Yaponiyaga o'qigan. U yerdalik vaqtida Amerika Bibliya jamiyati a'zosi Genri Lumis orqali Amerika missionerlariga maktub yo'llab, ulardan Koreyaga ayol missionerlarni yuborish masalasini kengroq o'ylab ko'rishga chaqiradi. "Mening fikrimga ko'ra, – deb yozadi Yi, – ayol missionerlar [hozirgi davr uchun] juda katta ahamiyat kasb etgan bo'lar edi. Koreys odatlari ayol va erkaklar kuch jihatidan teng bo'lgan na yapon, na xitoycha an'analarga o'xshamaydi." Fikrini davom ettirib, amerikalik missionerlarni nega yoqlashini quyidagicha izohlaydi: "ularning vazifasi koreyslarni, ayniqsa bolalarni [dunyovarash jihatidan] o'stirish, isloh qilish hamda o'qitish bo'lishi kerak. Shu jihatdan qizlar maktablari juda muhim deb hisoblayman. Buning boisi men missioner xonimlarning mening mamlakatimga kelishlarini intilqik bilan kutmoqdaman, shuningdek, garchi nodon odam bo'lsam ham, ishimda qo'limdan kelganicha yordam beraman" [2].

Yi Su Jongning koreys jamiyatida ayollarga munosabat haqida keltirgan fikrlar qimmatli. Yangban va yangi konfutsiychilik ruhida voyaga yetgan bo'lishiga qaramay, qo'shni davlatlarda bo'lish orqali o'zlashtirgan g'oyalari orqali ayollar ta'limini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni yoqlash yo'lidan borgan kamsonli yangicha fikrlaydigan zodagonlardan biri edi.

Yi kabi fikrlaydigan boshqa bir koreys ziyolisi 1881-yilda *sinsa yuram-dam* missiyasi a'zosi Yun Chi Ho (1865-1945; u 1896-yilda tuzilgan "Mustaqillik klubi" a'zosi ham edi) ham AQShda qizlar uchun maktablarning rivojlanishining rolga urg'u berib o'tgan. 1891-yildagi jurnalida Nashvillga qilgan safari davomida shahardagi o'qimishli aholining har yetti nafaridan besh nafari ayol kishilar ekanligini kuzatganini

yoziq qoldirgan. Bundan tashqari, Nashvill universiteti bitiruvchi guruhida bor-yo'g'i o'n bir nafar erkak kishi bo'lgani holda, qirq ikki nafari ayol kishi bo'lganligi Yunni juda hayratda qoldirgan edi[3]. Yun sayohatining navbatdagi manzili "yo'ldagi eng yoqimli va eng sog'lom shahar" Vizvill bo'lib, bu yerda o'nta cherkov, ikki haftada va haftada ikki marta chiqadigan gazetalar, bundan ham ahamiyatlisi uch yoki to'rtta xotin-qizlar maktablari bilan mashhur shaharcha edi[4]. Yi va Yun o'z safarlaridan bitta umumiy xulosa chiqarishgan: haqiqiy zamonaviy davlatga aylanishi uchun Koreya albatta qizlarni o'qitishi zarur va taraqqiyotga qo'yilgan ilk qadam bo'ladi.

Albatta, bu kabi harakatlar va klublarning ayollar ta'limi va ijtimoiylashuvini yoqlashi hamda qo'llab-quvvatlashi ijobiy jarayon. Ammo bu sai-harakatlarning meva berishi uzoq muddatga cho'zilgani tarixdan ma'lum. Bu jarayonning faol ishtirokchilaridan So Che Phil bu muhokamadagi masalaga iyerarxiya hamda gender munosabatlarning an'anaviy kuchi tufayli o'ta shiddatli kechishi mumkin, ayniqsa hozirgi davrdagi holatida deb izoh beradi. Zero yangi konfutsiychilik va koreyslar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganganimiz sari uning fikri qanchalik asosli ekanligini tushunib boramiz. "Ayolning hayoti erkaklikidan pastda emas", chunki "erkaklar ma'rifatli emas" va faqatgina o'zlarining jismoniy kuchlaridan ayollarni xo'rlashda foydalanadilar. Natijada, So erkaklarni o'ziga xos tarzda ogohlantiradi: davr o'tib borishi bilan yangi bilimlarni o'zlashtirgan ayollar vaqti kelishi bilan "kaltafahm" erkaklarning qarshisiga teng huquqlar talab qilish chiqishadi [5]. Islohotlar jarayonini boshlash uchun ham o'g'il, ham qiz bolalar uchun ta'limni birdek ta'minlab qo'yish kerak: "Xalqimiz bolalarini o'qitar ekanmiz, jinslar o'rtasida ajratishlar bo'lmasligi kerak. Qachonki o'g'il bolalar uchun bir maktab tashkil qilsak, uning yonida qizlar uchun ham bitta maktab ochishimiz zarur. Vaholanki, hukumat qizlarni o'qitmaydi va bu aholimizning yarmi e'tiborsizlikka duchor hamda savodsiz bo'lib qolmoqda deganidir. Bu qanchalik achinarli! Biz koreys ayollarining ayanchli muomala ko'rayotgan holda ko'rib ulg'aymoqdamiz. Biz erkaklar bilan ayollar (ning huquqlari) uchun kurashishda qat'iy qarorimiz" [6].

**Xulosa.** Uning ogohlantirishlari bashoratdek yangraydi: ikkinchi jahon urushi tugashi bilan koreys ayollari teng haq-huquqlar va erkinlik uchun uzoq davr davom etgan kurashni boshlashgan edi. Ayollar ta'limi masalasi nafaqat mustamlakaga aylanish arafasida turgan Koreyada, balki boshqa rivojlanishdan orqada qolib ketgan Sharq mamlakatlarida ham birdek kun masalasi bo'lgani tarixiy hujjatlardan ma'lum. Misol uchun, O'rta Osiyo jadidlarining barchasi yangi usul maktablariga xotin-qizlarni ham jalb qilish, millatning kelajagi o'qimishli onalardan boshlanishini ko'p bor ta'kidlashgan. Ulardan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy xotin-qizlarga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilib "Keldi ochilur chog'ing, o'zliging namoyon et, Parchalab kishanlarni har yon parishon et" deb boshlanuvchi she'rini yozgan edi. Bu kabi harakatlar bejiz ketmagan, oxir-oqibatda, bugungi kunga kelib Sharq mamlakatlari ayollar ta'limi bo'yicha dunyoning boshqa mintaqalaridan ancha yuqori indeksni ko'rsatish darajasiga yetib keldi.

#### ADABIYOTLAR

1. T.J.Yoo. The politics of gender in colonial Korea. Education, labor, and health, 1910-1945. University of California Press, Ltd. – London, England, 2008. – P. 43-44.
2. See Yi Kwang-nin, Han'guk kaehwasa yon'gu [A study of the history of Korean enlightenment]. – Seoul: Ijogak,
3. 1969. – P. 234-43.
4. National History Compilation Committee, ed., Yun Ch'i-ho's Diary. Vol. 2. – Seoul, 1974. – P. 139.
5. O'sha manba. – B. 215.

6. Tongnip shinmun, 1896-yil, 21-apreldagi soni.
7. “Agar odam xudoga benzar shaklda yaratilgan ekan, u holda barcha bir-biriga huddi xudoga qilgandek munosabatda bo‘lishi kerak”. Qarang: Weems B.B. Reform, Rebellion, and the Heavenly Way. – Tucson: University of Arizona Press, 1964.
8. Weems B.B. Reform, Rebellion, and the Heavenly Way. – Tucson: University of Arizona Press, 1964.
9. George Gilmore. Korea from Its Capital. – Philadelphia: The Presbyterian Board of Publication, 1892. – 300 p.
10. Lulu Frey. Higher Education for Korean Girls. The Korea Mission Field 10, no. 10 (Oct. 1914). – P. 307.
11. Yung-chung Kim. ed., Women of Korea. – P. 154.



UDK:333/327:94(575.3)

**Baxtiyor SAFAROV,**  
Tarix instituti mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail: [Baxtiyor\\_Safarov@mail.ru](mailto:Baxtiyor_Safarov@mail.ru)

Fanlar Akademiyasi Tarix instituti professori, t.f.d Q.Rajabov taqrizi asosida

### ESERLAR PARTIYASI FAOLIYATI (1901-1924 y.)

Annotatsiya

Maqolada eserlar (sotsialistlar-revolutsioner) partiyasining tashkil topishi, faoliyati, siyosiy maqsadlari, partiyaning bo'linishi, uning Turkiston o'lkasidagi faoliyati, a'zolar o'rtasidagi ziddiyatlar hamda partiyaning tugatilish sabablari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** partiya, eser, bolshevik, sotsialistlar-revolutsioner, maksimalist, demokratiya, inqilob, chekist.

### SR PARTY PROCEEDINGS (1901-1924Y)

Annotation

Foundation of Sotsial-revolutioners, their work, division of party, their role in Turkistan, conflicts among members, and main reasons of failure.

**Key words:** political parties, sr, bolshevik, social-revolutioners, maksimalist, democracy, revolution, checkist

### ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПАРТИИ ЭСЕРОВ (1901-1924 й.)

Аннотация

В статье говорится об основании эсеровской партии социал-революционеров, их деятельности, политических целях, о ее разделении, о деятельности партии в Туркестане, внутрипартийных разногласиях, а также о причинах завершения деятельности партии эсеров.

**Ключевые слова:** партия, эсеры, большевик, социал-революционер, максималист, демократия, революция, чекист.

**Kirish.** Rossiyadagi sotsialistlar-revolutionerlar partiyasi a'zolari tarixiy manbalarda ko'proq eserlar nomi bilan tilga olinadi. Eserlar partiyasi 1901-yilning oxirida tashkil topdi. Ular Rossiyadagi dehqonlar manfaatini ifodalagan. Rossiyadagi eserlar partiyasi rahbarlari: V.M.Chernov, A.F.Kerenskiy, N.D.Avksentev, A.R.Gots, V.M.Zemzinov va boshqalar bo'lgan. Eserlar Rossiyadagi demokratik kuchlarning so'l qanotiga mansub bo'lib, Rossiyadagi turli **narodniklik** guruhlarining o'zaro birlashishi ta'sirida vujudga kelgan edi.

Ular 1917-yil fevralgacha Rossiya imperiyasida yashirin holatda faoliyat ko'rsatishgan. Eserlar partiyasining markaziy nashri "Дела народа" ("Xalq ishi") gazetasi bo'lib, u 1917-1918-yillarda nashr etilgan. 1917-yil fevral inqilobidan keyin eserlar partiyasida 500 000 nafar a'zo bo'lib, ular Rossiyaning 63 ta guberniyasida, harakatdagi qo'shinlar safida frontda va flotda ish olib borgan. Eserlar 1917-yil bahori – yozida Rossiyada mensheviklar va kodetlar partiyalari bilan ittifoq tuzib, mamlakatda xukmron partiyalardan biriga aylangandi. Rossiyadagi eserlar partiyasi ichida turli ziddiyatlar bo'lgan. Bu ziddiyatlar, xususan, birinchi rus revolutsiyasi (1905-1907-y.) hamda birinchi jahon urushi (1914-1918 y.) davrida kuchayib, partiyadan 1906-yili xalq sotsialistlari va maksimalistlar partiyalari, 1917-yil noyabrda so'l eserlar partiyasi ajralib chiqdi. So'l eserlar 1917-yil 25-oktyabr (7-noyabr)da Petrogradga hokimiyatni zo'ravonlik bilan bosib olgan **bolsheviklar** bilan ittifoq tuzdilar. Bu paytda bolsheviklar ham taktik maqsadlarini ko'zlab, so'l eserlar bilan hokimiyatni vaqtinchalik bo'lishdi. Bolsheviklar qolgan eserlarni "o'ng eserlar" deb atab, ularni shavqatsiz qatag'on qilishga kirishdi.

So'l sotsialistlar – revolutsionerlar (internatsionistlar) partiyasi a'zolari tarixiy manbalarda **so'l eserlar** deb nomlanadi. Birinchi jahon urushi yillarida eserlar partiyasining

bir guruh yo'l boshchilari bo'lgan B.D.Kamkov, M.A.Natanson, M.A.Spiridonova va boshqalar urushga qarshi chiqish, Rossiya imperiyasi rasmiy siyosatiga muxolifatda bo'lishgan. Fevral inqilobidan keyin ular Moskvada 1917 – 1918-yillarda nashr etilgan "Земля и воля" ("Yer va erk") gazetasi atrofida birlashdilar. Moskvada 1917-yil 25-may-4-iyunda bo'lib o'tgan eserlar partiyasining III syezdida ular alohida dastur bilan chiqib, eserlar partiyasi Markaziy Komitetining uchta asosiy siyosiy qoidasiga quyidagicha qarshi chiqdilar: urushni imperialistik xususiyatini e'tirof etish hamda zudlik bilan urushni to'xtatish va Rossiyaning jahon urushidan chiqib ketishini taminlash; aksinqilobchi Muvaffaq hukumat bilan eserlar hamkorligini to'xtatish; yer haqidagi masalani eserlar dasturi asosida "социализация" yo'li bilan tez hal qilish hamda krestianlar (dehqonlar)ga belgilangan normada yerni taqsimlab berish. Keyinchalik so'l eserlar kadetlar bilan ham ittifoqqa qarshi chiqishdi va bolsheviklarga yaqinlashdilar. V.I.Lenin boshchiligidagi sovet hukumati o'zining Tinchlik va Yer to'g'risidagi dastlabki dekretlaridagi asosiy g'oyalarni so'l eserlarning yuqoridagi fikrlaridan olishgan edi.

1917-yil 25-27-oktyabr (yangi hisob bilan 7-9-noyabr)da bo'lib o'tgan Butunrossiya Sovetlari II syezdida so'l eserlar bolsheviklar tomonidan taklif qilingan dekretlar uchun ovoz berishdi hamda Butunrossiya Markaziy Ijroia Qomitasi (БЦИК) tarkibiga kirishdi. 1917-yil 26-noyabr-5-dekabr (9-18-dekabr)da bo'lib o'tgan eserlar partiyasining IV syezdida sol eserlar partiyadan ochiriladi. Ular 1917-yil 19-28-noyabr (2-11-dekabr)da Petrogradga bolgan o'zlarining I syezdida mustaqil so'l eserlar partiyasiga asos solishdi (1918-yil iyulda partiya a'zolari miqdori 80 000 kishidan oshib ketdi). So'l eserlar partiyasining markaziy nashri "Znamya truda" gazetasi (1917-1918) hamda "Znamya" jurnali (1919-1922) bo'ldi. Rossiyadagi sol eserlar partiyasi liderlari



Spiridonova, Kamkov, Natanson, Mstislavskiy va boshqalar VTSIK Prezidiumi a'zoligiga saylandi (1917-yil noyabr – 1918-yil mart). Ular 1917-yil dekabrda РСФСР Xalq Komissarlari Soveti (CHK) tarkibiga ham "portfelsiz ministrlar" sifati bilan kirtildi (A.Kolegaev, I.Shteynberg, P.Proshiyan, V.Trutovskiy, V.Algasov, V.Karelin va b.). Biroq so'1 eserlar 1918-yil martda imzolangan Brest sulhiga qarshi chiqib, bolsheviklar bilan bu masalada qattiq tortishib qoldilar. So'1 eserlar norozilik sifati bilan sovet hukumati tarkibidan chiqib ketishdi. Sovet hukumati rahbari va bolsheviklar partiyasi dohiysi V.I.Lenin ga qilingan suiqasd hamda bolsheviklarning boshqa siyosiy partiyalarga nisbatan qatag'on siyosati Rossiyadagi bu ikki siyosiy kuchlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi.

1918-yil iyulda Moskvada ko'tarilgan so'1 eserlar isyoni bolsheviklar tomonidan shafqatsiz ravishda bostirildi. So'1 eserlar partiyasi rahbarlaridan 13 nafari chekistlar tomonidan otib tashlandi. 1918-yil 27-noyabrda Oliy inqilobiy tribunal hukmi bilan isyon qatnashchilari bo'lgan so'1 eserlar Markaziy Komitetining 9 nafar a'zosi Proshiyan, Kamkov, Karelin, Blyumkin, Andreev, Spiridonova, Sablin 1 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilindi. Biroq ВЦИК Prezidiumining 1918-yil 21-noyabrdagi qarori bilan "ularning inqilob olidagi xizmatlarini hisobga olib" amnistiya etildi.

Bolsheviklarning subutsiz va makkorona siyosati, ularning xalqqa qarshi qaratilgan ishlari so'1 eserlarni ham ulardan hafsalasi pir bo'lishiga olib keldi. So'1 eserlar partiyasining 1918-yil 2-7-oktyabrda Moskvada bo'lib o'tgan IV syezdi bolsheviklardan holi "haqiqiy sovet tuzumi" o'rnatilishini talab qildi. Bu holat bolsheviklarni yanada qattiq g'azablantirdi. Bolsheviklarning turli aygoqchilari va chekistlar so'1 eserlar partiyasini ichdan emirishga, partiya liderlarini bir-biriga qarshi qo'yishga harakat qildi. Partiyaning etakchisi Mariya Aleksandrovna Spiridonova (1884-1941) bilan Markaziy Komitet a'zolari o'rtasida 1919-yil yozida katta kelishmovchilik tug'dirildi. Buning natijasida M.Spiridonova siyosiy kurash maydonini tark etdi. Shteynberg boshchiligidagi Markaziy tashkiliy byuro sovet hukumiyati bilan hamkorlik qila boshladi. 1920-yil oktyabrda sovet hukumati so'1 eserlarning ko'pchilik qismiga ochiq faoliyat ko'rsatishga vaqtincha ruxsat berdi. Kamkov boshchiligidagi ozroq so'1 eserchilar yashirin faoliyatga o'tib, Makhno va Antonov boshchiligida Ukraina va Tambovda sovet hukumiyatiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlarda g'oyaviy rahnamolar sifatida qatnashdilar. 1921-yilidagi Kronshtadt isyonidagi matroslar orasida ular ham bo'lgan. So'1 eserlar rahbarlari maksimalistlar bilan birgalikda 1922-yil sentyabrda "So'1 eserlar partiyasi va sotsialist-revolutsionerlar maksimalistlar birlashgan ittifoqi"ni tuzdilar. Bu siyosiy kuch Rossiyada bolsheviklar tomonidan 1923-yilda butunlay tug'atildi.

Turkiston o'lkasida eserlar partiyasining dastlabki faoliyati XX asr boshlariga tog'ri keladi. Tarixchi M.G.Malikovning yozishicha, Turkistonda eserlar partiyasining birinchi guruhleri 1903-yilda tashkil topgan. 1917 yil sentabrda eserlar partiyasidan so'1 eserlar guruhi ajralib chiqqan. Turkistondagi so'1 eserlar partiyasi Oktyabr to'ntarishidan keyin bolsheviklar bilan hamkorlik qilgan. Bu holat 1919-yil iyulgacha davom etadi.

Turkistonda eserlar partiyasining tuzilishi Rossiyaning markaziy guberniyalaridan bu yerga surgun qilingan siyosiy mahbuslar bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Narodniklik go'yalar bilan Rossiyadagi samoderjaviyega qarshi kurashayotgan ko'plab inqilobchilar o'sha paytda Turkiston o'lkasiga surgun va badarg'a qilingan. 1902-1903-yillarda Turkistonning yirik shaharlarida siyosiy mahbuslar, talabalar hamda milliy ziyolilar tomonidan yashirin ravishda turli siyosiy guruhleri tuzilib, ular eserlar partiyasiga birlashdilar.

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, 1904-yili Toshkent va Samarqandda "Sotsial demokratlar va sotsialist-revolutsionerlarning ittifoq guruhi" tashkil qilingan. 1904-yili sentabrda Ashxobod (hozirgi Ashxobod) shahrida L.Stabrovskiy eserlar guruhini tashkil qiladi. 1905-yili Verniy (hozirgi Olmaota) shahrida "Revolutsioner sotsialistlarning Семиречье (Yettisuv) guruhi tuzildi". Guruh tarkibiga sotsial-demokratlar va eserlar kiradi.

Birinchi rus inqilobi yillarida Turkistonda sotsial-demokratik go'yalar zaiflashdi, ko'pchilik РСДПП saflarini tark etdi. Rossiya imperiyasining qatag'on siyosati, xususan, 1907 yili iyun oyida Toshkentda maxsus tashkil etilgan Turkiston rayon muhofaza bo'limi (chor oxrankasi)<sup>2</sup> ularni shafqatsiz jazoladi. Biroq bu paytda Turkiston aholisining asosiy qismi bo'lgan dehqonlar manfaatini himoya qilayotgan eserlar partiyasining obro'si oshdi.

Eserlar partiyasi saflariga surgun qilingan siyosiy mahbuslar va Turkistonda yashovchi yevropaliklardan tashqari, ular ichida Rossiya dan ko'chirilgan rus muzhiklari ham ko'pchilik bo'lgan, tub aholi vakillari (ozbeklar, qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar) ham bor edi.

Tarixiy manbalar va arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha, 1906-yili Toshkent, Qo'qon va Ashxobodda eserlar partiyasining komitetlari tuzildi<sup>3</sup>. Turkistonga Rossiya markazidan eserlar partiyasi Markaziy Komitetining ruscha nashr etilgan gazetalarini umumiy nusxalarda kelib turgan.

Turkistondagi eserlar partiyasiga qishloqda yashovchi dehqonlar bilan bir qatorda Rossiya dan ko'chirib kelgan rus mujiklari, shahardagi turli tabaqalarga mansub birjuaziya vakillari, nisbatan ishchilar va armiyadagi soldatlar a'zo bo'lib kirgan. XX asrning 10-yillariga kelganda eserlar partiyasi a'zolari Turkistondagi eng ommaviy siyosiy kuch sifatida tarix sahnasiga chiqdi. Keyinchalik Turkiston, Buxoro va Xorazmdagi jadidchilik harakatining yirik namoyandalari bo'lgan ayrim taraqqiy-pavarlar va milliy kommunistlarning ko'pchiligi (Sa'dullohho'ja Tursunho'jayev, Obidjon Mahmudov, Usmon Ho'ja, Otaullo Ho'jayev, Polat Soliev, Abdulqodir Muhitdinov, Nazir To'raqulov, Nizomiddin Ho'jaev va b.) ham dastlab eserlar yoki so'1 eserlar partiyasi a'zolari bo'lgan edi.

Biroq, 1911-yili Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasi general-gubernatorlik mahkamasi hamda oxranka siyosiy idorasi Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Yangi Marg'ilon, Ashxobod va boshqa shaharlardagi eserlar partiyasi a'zolari ga kuchli zarba beradi<sup>4</sup>. Turkiston eserlari Birinchi jahon urushi davrida rus imperiyasi ma'muriyati tomonidan yana qatagon qilinadi.

Fevral inqilobi g'alabasi natijasida Turkistonda ham eserlar partiyasi faoliyatida yangi bosqich boshlanadi. Eserlarning Turkiston shaharlari dagi ta'siri Rossiyaning ilg'or rayonlaridagiga qaraganda ancha kuchli bo'ldi. Ular 1917-yil mayda Toshkentda o'z suyuqlarini o'tkazib, o'lka organlarini tuzdilar. Eserlar Turkistondagi Ishchi va solidat deputatlari Sovetlari hamda Dehqon deputatlari Sovetlarida ham ko'pchilikni tashkil etdilar va o'lkadagi Muvaqqat hukumat organlari siyosatini qo'llab-quvvatladilar.

1917-yil yozida Turkiston eserlari safida 5000 kishidan ko'proq azo bo'lib, ular mintaqadagi eng obro'li va nufozi katta siyosiy kuch bo'lgan. Bu paytda Rossiyaning markaziy shaharlariga nisbatan Turkiston shaharlarida eserlar aholi o'rtasida kuchli mavqega ega bo'lgan. Toshkentda sotsialistlar-revolutsionerlar partiyasining maxsus tipolitografiyasi faoliyat ko'rsatgan. Masalan, 1917-yil avgustda ushbu tipografiyada Rossiyadagi Turk federalistlar partiyasining programmasi o'zbek va rus tillarida nashr qilingan.

Xullas, Turkistonda eserlar 1917-yil mart-sentyabr oylari davomida Toshkent shahri hamda boshqa yirik



shaharlardagi **Sovetlar** tarkibida mensheviklar bilan birgalikda ko'pchilikni tashkil qilgan. Eserlar partiyasi tarkibidan so'l eserlarning rasmiy ravishda ajralishi ham Rossiya markaziy shaharlari Petrograd va Moskvaga qaraganda Turkistonning o'sha paytdagi siyosiy va iqtisodiy markazi Toshkentda ancha yerda yuz bergan.

Turkiston o'lkasida eserlar partiyasining bo'linishi 1917-yil 10-sentyabr kuni to'g'ri keladi. Tarixiy adabiyotlarda ko'rsatilganidek, shu kuni partiyaning Toshkent bo'limi yig'ilishida I.I.Chernevskiy boshchiligidagi so'l eserlar o'zlarini o'ng eserlardan ajrab chiqqanliklarini e'lon qilishdi. Turkistonda ham so'l eserlar tobora bolsheviklarga yaqinlasha boshladi. O'ng eserlar tarkibida yuqori mansabdagi amaldorlar va zobitlar, burjuaziya vakillari qolishdi.

1917-yil sentyabr oyidan boshlab **mensheviklarda** ham, eserlarda ham sol qanot tobora aniqroq ajralib chiqadi: bular ilgari mayda burjuaziya mafkurasi ta'siriga tushib qolgan ishchilarining bir qismidan, shahar va qishloq yarim proletarlaridan hamda inqilobiy-demokratik intellektsiaining vakillaridan iborat menshevik-internatsionalistlar, so'l eserlar, maksimalistlar edi. 1917-yil sentyabrda Turkiston da so'l eserlar aslini olganda mustaqil siyosiy partiya bo'lib ajralib chiqdilar. Bu partiya burjuaziya bilan koalitsiya tuzishga qarshi bo'lib, darhol katta yer dehqon egaligini tugatishni yoqlab chiqadi. Toshkentda 1917-yil 1-noyabrda hokimiyatni bolsheviklar zo'rvonlik bilan bosib olishdi. Biroq ularning mintaqada nufuzi bu paytda zaif bo'lib, dastlabki sovet hukumati tarkibiga bolsheviklardan tashqari so'l eserlar va mensheviklar ham kirishgan. 1917-yil 15-22-noyabrda Toshkentda bo'lgan Ishchi, solat va dehqon deputatlarining III o'lka syezdida hokimiyat masalasida qizgin munozaralar bo'ldi. Bolsheviklar bilan so'l eserlar ortasidagi kelishuvga muvofiq hukumat tarkibidagi 8 o'rin so'l eserlar va 7-o'rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga berildi. Sovet Rossiysi (PCFCCP)dan farqli ravishda Turkistondagi dastlabki sovet

hukumati da bolsheviklarga nisbatan so'l eserlar ko'pchilikni tashkil qildi. Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti (XKC) raisi qilib saylandi. Biroq Turkiston o'lkasidagi dastlabki sovet hukumati tarkibiga mahalliy aholidan bironta ham vakil kirtilmadi.

“Туркестанские ведомости” gazetasida yozilishicha, Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti tarkibiga quyidagi 15 kishi kirtilgan: F.I.Kolesov – XKS raisi hamda temir yo'llar, pochta va telegraf xalq komissari; V.V.Zalesskiy – XKSning ikkinchi raisi hamda tashqi ishlar va armiya xalq komissari; P.V.Chegodayev – kotib; E.D.Perfilyev va Stashkov – ikkita harbiy xalq komissarlari; P.G.Poltoratskiy – mehnat xalq komissari; Permezskiy – maorif xalq komissari; F.S.Barankin – sog'likni saqlash xalq komissari; Domogatskiy – yer ishlari xalq komissari; Kotelnikov – moliya va ikkinchi oziq-ovqat xalq komissari; L.D.Shevtsov – suvdan foydalanish xalq komissari; A.A.Kazakov - oziq-ovqat xalq komissari; V.E.Agalov – fuqarolik qismlari va ma'muriyat xalq komissari; V.S.Lyapin – savdo va sanoat xalq komissari; K.Ya.Uspenskiy – maxsus topshiriqlar bo'yicha xalq komissari.

Tarixchi P.P.Nikishovning yozishicha, bu “xalq komissarlari”dan Zalesskiy, Chegodayev, Perfil'yev va Stashkov, Permezskiy, Barankin, Domogatskiy, Uspenskiy, Kotelnikov, Shevtsov sol eserlar hamda mensheviklar-internatsionalistlar partiyasining a'zolari bo'lishgan.

**Xulosa.** Hullas, Turkiston o'lkasidagi so'l eserlar sovet hokimiyatining dastlabki davrida – 1917-yil noyabrda to 1919-yil bahorigacha bolsheviklar bilan hamkorlik qilishgan. Ularning hamkorligi juda qisqa vaqt davom etib, pirovardida bolsheviklar o'zlarining “ittifoqchilari” bo'lgan so'l eserlarni siyosiy hokimiyat uchun kurashda yanchib tashladi. Turkistonda so'l eserlar bilan bolsheviklar o'rtasida 15 oylik “o'zaro hamkorlik va ittifoq” alohida tadqiqotlar mavzui bo'lib, bu haqda keyingi maqolalarimizda so'z boradi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbek sovet entsiklopediyasi. Tom 13. Eserlar (Sotsialist-revolutsionerlar)
2. O'zbekiston Milliy arxivi, I-1-fond, 31-ro'yhat, 400-ish, 48-varaq.
3. O'zbekiston Milliy arxivi, I-461-fond (Turkiston rayoniy oxrana bo'limi), 1-ro'yhat, 1-ish, 1-5-varaqlar.
4. O'zbekiston Milliy arxivi, I-128-fond, 1-ro'yhat, 1183-ish, 1-4-varaqlar; I-1-fond, 31-ro'yhat, 395-ish, 42-varaq.
5. Пакунова.Т.А. Партия левых социалистов-революционеров (интернационалистов): идеология, организация, тактика (ноябрь 1917 – 1923 гг.). Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Москва, 1998. – 26 стр.
6. Маликов М.Г. Крах партии левых эсеров Туркестана. Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент, 1967. – С. 4.
7. O'zbekiston Milliy arxivi, I-133-fond, 1-ro'yhat, 254-ish, 1-80-varaqlar.
8. O'zbekiston Milliy arxivi, I-461-fond, 1-ro'yhat, 981-ish, 141-153-varaqlar.
9. Abdulloev R. Национальные политические организации Туркестана в 1917 – 1918 годы. 1-е издание. – Ташкент: Adabiyot uchqunlari, 2016. – 284 с.
10. Sovet; Sovetlar // O'zbek sovet entsiklopediyasi. Tom 10. – Toshkent: O'zbek sovet entsiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1978. – B. 73, 196.
11. Никишов П.П. Из истории краха левых эсеров в Туркестане. – Фрунзе: Кыргызстан, 1965. – С. 27-28.
12. O'rta Osiyo kommunistik tashkilotlarining tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 1969. – B. 178-179.
13. Rajabov Q., Naydarov M. Turkiston tarixi (1917 – 1924 y.). – Toshkent: Universitet, 2002. – B. 39-40.
14. “Туркестанские ведомости”. – № 184. 1 декабря 1917 г.
15. Победа Октябрьской революции в Узбекистане. Сборник документов. Том.1. Установление советской власти в Узбекистане. – Ташкент: Изд. АН УзССР, 1963. – С. 578.
16. Rajabov Q. Turkiston Muhtoriyatı tarixi. – Toshkent: Fan, 2023. – B. 90-93.
17. Меньшевики-интернационалисты // Гражданская война и военная интервенция в СССР. Энциклопедия. – С. 353-354.
18. Леоэсеровский мятеж 1918 // Гражданская война и военная интервенция в СССР. – С. 324.
19. Гусев К.В., Полушкина В.А. Стратегия и тактика большевиков в отношении непролетарских партий. – Москва: Политиздат, 1983. – С. 60.



UDK: 930.85

*Nishona HASANOVA,*  
*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti, PhD*  
*E-mail: hasanova407@mail.ru*

*Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD). J.Hayitov taqrizi asosida*

## HISTORY OF NEW VARIETIES OF AGRICULTURAL CROPS DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

Following article deals with the changes in agriculture during the years of independence in Uzbekistan. The abolition of the cotton monopoly, the laws adopted by the Cabinet of Ministers on agriculture and land, and the works carried out within the framework of the decrees, decisions and orders of our president on agriculture are given as well. At the same time, the requirements for the yield and productivity of most seed stocks of grain crops today, the main factors for obtaining high-quality crops from grain, are explained in detail.

**Key words:** horticulture, leguminous crops, grain farming, mineral fertilizers, calendar, agricultural sector, food, corn, cotton varieties, intensive garden.

## ИСТОРИЯ НОВЫХ СОРТОВ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КУЛЬТУР В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В данной статье подробно изложены изменения в сельском хозяйстве за годы независимости Узбекистана, отмена хлопковой монополии, законы о сельском хозяйстве и земле, принятые Кабинетом министров, указы, постановления и распоряжения нашего президента по сельскому хозяйству. При этом подробно разъясняются требования к урожайности и продуктивности большинства семенных фондов зерновых культур на сегодняшний день, основные факторы получения высококачественных культур из зерна.

**Ключевые слова:** садоводство, зернобобовые культуры, зерновое хозяйство, минеральные удобрения, календарь, аграрный сектор, продукты питания, кукуруза, сорта хлопка, интенсивный сад.

## MUSTAQILLIK YILLARIDA YANGI EKIN NAVLARI TARIXI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonning mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar, paxta yakkahokimligiga barham berilishi, vazirlar mahkamasi tomonidan qishloq xo‘jaligi va yerga doir qabul qilingan qonunlar, prezidentimizning qishloq xo‘jaligiga doir farmonlari, qarorlari va farmoyishlari doirasida amalga oshirilgan ishlar batafsil yoritilgan. Shuning bilan birgalikda, bugungi kunda boshqoqli don ekinlarining aksariyat urug‘lik zaxiralarning hosildorligi va unumdorligiga qo‘yiladigan talablar, g‘alladan yuqori va sifatli hosil yetishtirishning asosiy omillari atroflicha tushuntirilgan.

**Kalit so‘zlar:** dukkakli ekinlar, dehqonchilik, g‘allachilik, mineral o‘g‘itlar, taqvim kalendar, agrar soha, oziq-ovqat, makkajo‘xori, go‘za navlari, intensiv bog‘.

**Kirish.** Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarda yurtboshimiz xalqimizning non va non mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish nihoyatda dolzarb vazifa ekanligini alohida ta’kidlagan edilar. Davlatimiz rahbarining oqilona siyosati natijasida nihoyatda qaltis vaziyatlardan chiqib, xalqimiz bugun g‘alla to‘kin-sochinligiga erishdi. Donli ekinlarga asosan bug‘doy, sholi, makkajo‘xori, arpa, javdar, suli jo‘xori, tariq va boshqa ekinlar kiradi. Jahon bo‘yicha ekiladigan ekinlarning asosiy qismini (70%) donli ekinlar tashkil qiladi. Xalqimizning asosiy ozuqa manbai bo‘lgan bug‘doy ekini qishloq xo‘jalik sohasining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. G‘alla bu oziq-ovqat xavfsizligi masalasida birinchi o‘rinda turgan yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ne‘matdir. G‘alladan yuqori va sifatli hosil yetishtirishning asosiy omillaridan biri bu mineral o‘g‘itlardan samarali foydalanishdir.

**Mavzuga doir manbalar tahlili.** 1991-yil respublikada barcha don ekinlarida jami 940 ming tonna yetishtirilgan bo‘lsa, endilikda g‘allakorlarimiz yiliga 7-8 mln tonnalik xirmonlarni ko‘tarmoqdalar. Bu ulkan yutuqlarda g‘allachilik ilmi fidoiylarining ham munosib hissasi bor albatta. 1998-yil 7-avgustdan prezidentimiz tashabbusi bilan Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti sug‘oriladigan

yerlarda yuqori va sifatli don beradigan qattiq, bahorgi bug‘doy yangi navlarini yaratish, sohadagi ilmiy tadqiqotlar darajasi va sifatini tubdan oshirish, ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot muassasalari, markazlar va stansiyalar faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish vazifasi yuklatildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 10-fevraldagi “O‘zbekiston qishloq xo‘jalik ilmiy ishlab chiqarish markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib uning 3-bandida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ilmiy ishlab chiqarish markazi tarkibidagi yetakchi ilmiy tadqiqot institutlaridan bosh tashkilotlar shakllantirildi. Jumladan don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti respublikada g‘allachilikni rivojlantirish yo‘nalishida bosh tashkilot sifatida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. O‘tgan yillar mobaynida institut dunyoning g‘allachilik fani bo‘yicha yetuk ilmiy tadqiqot dargohlari bilan aloqa o‘rnatib, seleksiya ishlarida foydalanish uchun 8 mingdan ortiq navlar kolleksiyasini jamlashga erishdi. Shuningdek, institut va uning viloyat filiallari hamda ilmiy tajriba stansiyalari seleksioner olimlari shu kungacha kuzgi yumshoq va qattiq bug‘doyning Chillaki, Andijon 2, Andijon 4, Bobur, Yaksart, kabi ellikdan ortiq yangi navlarni yaratishdi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O‘zbekiston Respublikasining “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida” va

“Urug’chilik to’g’risida”gi qonunlari va Vazirlar Mahkamasining urug’chilikni rivojlantirish va takomillashtirish borasidagi qarorlari qishloq xo’jalik ekinlari nav va urug’larga bo’lgan talablarga aniqlik kiritish hamda malum bir darajada xalqaro talablarga uyg’unlashtirishni taqazo etadi. Hozirgi paytda respublikamizda bug’doyning 93 ta navi turli tuproq iqlim sharoitlarida ekilmoqda. Shundan 42 ta nav mustaqillik yillarida ishlab chiqarishga tadbir etildi. Mustaqillik yillarida don hosildorligi ko’payish bilan birgalikda uning sifati ham ancha yaxshilandi. Shu bilan bir qatorda, barqaror, yuqori va sifatli hosil beradigan atrof-muhitning noqulay sharoitlariga bardoshli, kuchli va qimmatli texnologik sifatlariga ega bo’lgan mahalliy bug’doy navlarini yaratish ularning birlamchi va ommaviy urug’chiligi hamda urug’sunoslik usullarini takomillashtirish bugungi kunda ustuvor masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda boshqoli don ekinlarining aksariyat urug’lik jamg’armasining navdorlik va ekinboplik sifatleri belgilangan talablarga to’liq javob beradi deb bo’lmaydi. Shu sababli aksariyat navlari hosildorligi past, urug’lik sarfi esa xorij mamlakatlar ko’rsatgichlaridan birmuncha yuqori bo’lmoqda. Yuqoridagi muammoning sabablarini o’rganish va ularni hal etish uchun boshqoli don ekinlari urug’larining sifat ko’rsatgichlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Yana bir asosiy donli ekinlardan biri bu sholi hisoblanadi. Tarixiy manbaalarda yozilishicha sholining vatani bu - Xitoy o’lkasidir. Bugungi kunda bizda sholining 19 navi yetishtiriladi. Ulardan: Avangard, Alanga, Guliston, Lazurniy, Jayhun, Mustaqillik, Gulzar kabi nomlar bilan ataladi. Makkajo’xori ham donli ekinlar sirasiga kirib, bir yillik o’simlik hisoblanadi. Issiqsevar, yorug’savar, qurg’oqchilikka ancha chidamli bahorgi ekin hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** Paxta eng qadimiy yigiruv ekinlaridan biridir. Inson aynan qachondan paxta tolasini birinchi marta ishlata boshlaganligi aniqlanmagan. Taxminan paxta 7000 yil muqaddam mavjud bo’lgan. Paxta yetishtirish Hindiston va Pokistonning Indus vodiysida boshlangan, keyinchalik Afrika, Arabiston, Suriya va Osiyo bo’ylab tarqalgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko’ra qadimiy Rimda legionerlar doimiy ravishda paxtadan tikilgan kiyimlarda yurishgan. Ilk paxtadan tayyorlangan kiyim 1730-yil Angliyada paydo bo’lgan.

Yurtimiz zaminida yetishtirilgan paxta haqida ma’lumot taxminan 2000 yil avval Xitoyliklar tomonidan qayd etilgan. O’rta Osiyoda paxta madaniyati VI-VII asrlardan boshlab paydo bo’lgan. O’rta Osiyo ko’plab mamlakatlar bilan keng va jonli savdo-sotiq olib borgan. G’arbdan kichik Osiyo va Xitoyga karvonlar o’tish darvozasi bo’lgan. O’rta Osiyoga boshqa mamlakatlardan paxta chigiti shu yo’l bilan kelgan. X asrga kelib Zarafshon vodiysi va Marv vohasida paxtachilik keng rivojlangan. Yuqori sifatli paxta matolari ishlab chiqarilib, Samarqand, Buxoro bozorlarida sotilgan. XX asrga kelib O’rta Osiyo Chor Rossiyasi mustamlakasiga aylanadi va O’zbekiston paxtani Rossiyaga yetkazib bera boshladi. Chor Rossiyasi va O’zb SSR davrida paxta yetishtirish keskin o’sdi. Paxtani Rossiyaga yetkazib berish uchun temir yo’llar qurildi.

Paxtachilik ko’pgina mamlakatlar qishloq xo’jaligining yetakchi tarmog’i hisoblanadi. Dunyoning 84 mamlakatida g’o’za o’stiriladi. Paxta tolasini ishlab chiqarish bo’yicha eng yuqori ko’rsatgichni Xitoy tashkil qiladi. Xitoy dunyo paxtasining 25 %dan ko’prog’i, yani yiliga taxminan 6,5 mln tonnani tashkil qiladi. Buning uchun yuz mingdan ortiq fermerlar ter to’kadi va ta’kidlash joizki Xitoy bu borada juda qisqa vaqt ichida yuqori samaradorlikka erisha oldi. Yana bir muhim jihat Xitoy paxta xom-ashyosini deyarli eksport qilmaydi va to’lig’icha qayta ishlaydi, shuning bilan birga xorijdan ham faol import qiladi. Hosilni yig’ish asosan mashinalar orqali amalga oshiriladi. Xitoydan keyin paxta

yetishtirishda yetakchi bu Hindiston hisoblanadi. Bu davlat tabiati ham paxta yetishtirish uchun juda qulay hisoblanadi. Zamindorlar orasida ham paxtaga qiziqish baland. Shu bois ham bu davlat yiliga 6,3-6,4 mln tonna atrofida hosil oladi va ba’zi yillarda hosildorlik bo’yicha Xitoyni ham ortda qoldirib birinchilikka ham chiqib turadi. Mamlakatda paxtadan yuqori hosil olishida, uni qayta ishlash yuqori emas, xorijga eksport hajmi baland. Keyingi o’rinlarda esa paxta yetishtirishda AQSH, Pokiston va Brazilya mamlakatlari turadi.

2019-yilning 7-oktyabrdan Jahon savdo tashkiloti Birlashgan Millatlar Tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo’jalik tashkiloti (FAO) kotibiyatlari bilan hamkorlikda xalqaro paxta bo’yicha maslahat qo’mitasi (ICAC) birinchi marta xalqaro paxta kunini nishonladi. 2021-yil avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi paxtaning beqiyos ahamiyatini tan oldi va 7-oktyabrni Butunjahon paxta kuni deb e’lon qildi. Ushbu kunni nishonlashdan maqsad, paxta sohasi va uning iqtisodiy rivojlanishi, qashshoqlikni bartaraf etishdagi muhim roli haqida ogohlantirish, shu bilan birga barqaror iqtisodiy o’sish, to’liq samarali bandlik va munosib mehnat muhimligini ta’kidlashdan iboratdir.

Ma’lumotlarga ko’ra butun dunyoda 32 mlndan ortiq fermer paxta yetishtiradi va bu 80 dan ortiq mamlakatdagi 100 mlndan ortiq oilalarga moliyaviy tomondan foyda keltiradigan mahsulotdir. Bu mahsulot qulay, allergiya chaqirmaydigan, havo o’tkazuvchi va bardoshli matodir. Paxta ko’plab kichik qishloq fermerlari va ishchilari va ayniqsa ayollar uchun keng foydalanuvchi manba bo’lib dunyodagi eng qashshoq qishloq joylarida ish va daromad keltiruvchi mahsulotdir. Bir qator rivojlanmagan mamlakatlarda eksport daromadining asosiy resursi paxta bo’lib, oziq-ovqat importi uchun to’lovlarni amalga oshirishda yordam beradi. Paxta yetishtirish va qayta ishlash bosqichlarida ayollar va yoshlar ishsizligini kamaytirish, aholini munosib ish bilan ta’minlash uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Paxtaning qariyb 80 %i kiyim-kechak, 15%i uy- ro’zg’or buyumlari va qolgan 5 %i texnik ehtiyojlar uchun ishlatiladi.

O’zbekistonda paxta yetishtirish mamlakat xalq xo’jaligida muhim ahamiyatga ega, shuningdek paxta yetishtirish bo’yicha dunyoda 6-o’rinda turadi. Hozirgi kunda Respublika bo’ylab o’rtacha 1,1-1,2 mln tonna paxta hosili olinadi. Mamlakatimiz paxta tolasini eksporti bo’yicha bo’yicha dunyoda 2-o’rinda, paxta eksportida 3-o’rin, paxtani ishlab chiqarishda esa 5-o’rinda turadi. Yurtimizning turli viloyatlarida paxtaning har xil (34 xil o’rta tolali va 2 xil ingichka tolali) navlari o’stiriladi. Paxta chigitidan sanoatda yog’, sovun, kunjara va yana boshqa ko’plab mahsulotlar tayyorlanadi. Asosan bizning hosildor yerlarimizda paxtaning “Buxoro-6”, “Omad”, “Buxoro-8”, “Buxoro-102” navlari ekiladi. “Buxoro-6” g’o’za navi turlararo sun’iy duragaylash yo’li bilan ya’ni changlanuvchisi xirzitiyum turiga mansub ingichka tolali “Toshkent-1” navi bo’lib changlatuvchisi Barbadeze turiga mansub ingichka tolali, 1-tip tola beradigan 9647-N navlarini o’zaro sun’iy chatishtirish va avlodini ko’p marta qayta tanlash yo’li bilan O’z PiTi Buxoro filialida neftshunos olim A Battalov va boshqa olimlar tomonidan yaratilgan. Nav 1990-yildan boshlab rayonlashtirilib, davlat reyestriga kiritilgan. “Buxoro-6” navi ertapishar navlar guruhiga kirib o’rtacha 120-125 kunda hosili pishib yetiladi. Buxoro vohasida 5-20-aprel oralig’ida ekiladi. Mamlakatimizning Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlarida ekish uchun tavsiya qilingan. Yana bir g’o’za navi bu “Buxoro-8” Gossipium Xirzitiyum turiga mansub, “Buxoro-6” g’o’za navi ga bir pallaliliklarning fotosintez irsiyatini suniy o’tkazish yo’li bilan “Buxoro paxtachiligi” MCHJda A Battalov va boshqa olimlar tomonidan yaratilgan. 2001-yildan boshlab rayonlashtirilgan. Asosiy ekiladigan g’o’za maydovning 80 %ini 5-20- aprel oralig’ida ekish zarur.

“Buxoro-102” g'oz'a navi O'zbekiston Paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti Buxoro filialida yaratilgan. 2000-yilda Davlat Nav Sinash komissiyasiga taqdim etilgan. 2006-yildan boshlab rayonlashtirilgan. S Mahmudov va boshqalar tomonidan yaratilgan. “Buxoro-102” g'oz'a navining hosili 114-124 kunda tayyor bo'ladi. Buxoro viloyatidagi davlat nav sinash shahobchalarida 2000-2006-yillarda hosildorlik gektaridan hosildorlik 41-50-sentni tashkil qilgan.

Paxtachilik tarmog'ini rivojlantirish eng avvalo mamlakat oziq-ovqat strategiyasi yo'nalishlari talablarini bajarish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Yurtimizda paxtachilik tarmog'ini samarali rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri qishloqda agrar va iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishning huquqiy asoslarini hayotga to'raligicha tadbiq etishdir.

**Xulosa va takliflar.** Mamlakatning barcha viloyatlarida ekish uchun tavsiya qilingan bo'lib, uning O'zbekiston 420VL, O'zbekiston 320VL, Donana, Maksima, Delitop F1, Qorasuv 350AMV va boshqa navlari yetishtiriladi. Yana bir boshqodoshlar oilasiga mansub o'simlik suli hisoblanadi. Suli 1980-yildan respublikaning barcha sug'oriladigan yerlariga kuzgi muddatda ekiladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda sholining 4 xil navi yetishtiriladi. Tariq-boshqodoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik turidir. Bugungi kunda tariqning bizda 1 xil navi yetishtiriladi. Mamlakatimiz fermer xo'jaliklari va soha mutaxassislarining bugungi kundagi asosiy maqsadi boshqoqli don ekinlari ekilgan har bir gektar yerdan yuqori va sifatli hosil yetishtirishdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Babajanov. “Yer resurslaridan samarali foydalanishni barqaror rivojlantirish muammolari” Agroilm N:5.2019.
2. Tohir Daliyev. “Ezgu maqsadlar, ulkan rejalar agrar soha istiqbolini belgilaydi” O'zbekiston Qishloq xo'jaligi. N:2. 2018.
3. Babajanov. “Yer resurslaridan samarali foydalanishni barqaror rivojlantirish muammolari” Agroilm N:5.2019.
4. Obidov A. “Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirish” Darslik. – Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 184 b.
5. Tursunov S. “Dala ekinlari mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi”. – Toshkent, 2013.
6. Салиев А., Файзуллаев М. Социально-экономическое развитие Республики Узбекистан за годы независимости. //Вестник ассоциации Российских географов-обществоведов. Научный журнал, 2013. – № 2. – С. 102-110.
7. World Development Report (2008). Agriculture and Economic Growth.
8. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediya. – T.: «O'zbekiston», 1997.
9. Ражабов Ф.Т. Фермерские хозяйства Узбекистана: развитие и региональные особенности. //Материалы международной научной конференции (Пятая Ежегодная научная Ассамблея АРГО). – Санкт-Петербург, 2014. 29-30 августа. – С. 120-129.
10. Behzod Muhammadiy “O'zbekistonda paxtachilik: Mustaqillik dehqonga nima berdi?” 8.01.2013.
11. Saltikov: Fotogalireya. “Paxta imperiyasi. Rossiya O'rta Osiyoni qanday egallagan? Daryo.uz 2017.06.18.
12. To'xliyev Nurislom. Iqtisod fanlari doktori. “Paxta yakkkahokimligi haqida” // “Yoshlik” jurnali, 1989-yil. 7-son.